

**KAMOLIDDIN BEHZOD NOMIDAGI MILLIY RASSOMLIK VA DIZAYN
INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD38/09.07.2020.San. 119.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDA
BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

SAN'ATSHUNOSLIK INSTITUTI

ABDULLAEV MASHARIB SAYDAMATOVICH

**IX-XXI ASR BOSHLARI XORAZM AMALIY-BEZAK SAN'ATI:
RIVOJLANISHINING ASOSIY BOSQICHLARI VA
BADIY XUSUSIYATLARI**

17.00.04 – tasviriy va amaliy bezak san'ati

san'atshunoslik fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi

AVTOREFERATI

Toshkent – 2025

San'atshunoslik fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора наук (DSc) по искусствоведению

Sontent of the dissertation abstract of doctor of Science (DSc)

Abdullaev Masharib Saydamatovich

IX-XXI asr boshlari Xorazm amaliy-bezak san'ati: rivojlanishining asosiy bosqichlari va badiiy xususiyatlari 3

Абдуллаев Машариб Сайдамович

Декоративно-прикладное искусство Хорезма IX -нач. XXI вв.: основные этапы развития и художественные особенности.....30

Abdullaev Masharib Saydamatovich

Decorative and applied art of Khorezm 9th - early 21st centuries: main stages of development and artistic features..... 59

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works 64

**KAMOLIDDIN BEHZOD NOMIDAGI MILLIY RASSOMLIK VA DIZAYN
INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD38/09.07.2020.San. 119.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDA BIR
MARTALIK ILMIY KENGASH**

SAN'ATSHUNOSLIK INSTITUTI

ABDULLAEV MASHARIB SAYDAMATOVICH

**IX-XXI ASR BOSHLARI XORAZM AMALIY-BEZAK SAN'ATI:
RIVOJLANISHINING ASOSIY BOSQICHLARI VA
BADIY XUSUSIYATLARI**

17.00.04 – tasviriy va amaliy bezak san'ati

san'atshunoslik fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Toshkent – 2025

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.1.DSc/San28-raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi San’atshunoslik institutida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus va ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.mrdi.uz) hamda “Ziyonet” Axborot-ta’lim portali (www.ziyonet.uz) manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:

Xakimov Akbar Abdullaevich

san’atshunoslik fanlari doktori, professor,
O‘zR FA akademigi, O‘zBA akademigi

Rasmiy opponentlar:

Davlatova Saodat Tilovberdiyevna,

tarix fanlari doktori, professor

Mktrchiv Tigran Konstantinovich

san’atshunoslik fanlari doktori, professor

Sultonova Dilshoda Namozovna

arxitektura fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

O‘zbekiston davlat san‘at va madaniyat instituti

Dissertatsiya himoyasi K.Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.38/09.072020.San.119.01-raqamli Ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengashning 2025-yil “____” _____ kuni soat ____dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100029, Toshkent shahri, Mironshoh ko‘chasi, 123-uy. Tel.: (71) 255-98-39; e-mail: info@mrdi.uz).

Dissertatsiya bilan K.Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti kutubxonasida tanishish mumkin. (№____) raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: (Manzil: 100029, Toshkent shahri, Mironshoh ko‘chasi, 123-uy. Tel.: (71) 255-98-39. e-mail: info@mrdi.uz

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil “____” _____ kuni tarqatildi.
(2025-yil “____” _____dagi №____ raqamli reestr bayonnomasi).

K.B.Akilova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,
san’atshunoslik fanlari doktori, professor, O‘zBA akademigi

K.S.Nishanova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
kotibi, san’atshunoslik fanlari bo‘yicha
falsafa doktori (PhD), dotsent

A.A.Ziyoev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi Ilmiy seminar raisi,
arxitektura fanlari doktori, professor

KIRISH (doktorlik (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon amaliy bezak san'atida mintqa va hududlarning hunarmandchiligi, uning asriy an'analari, tarixiy shakllanish bosqichlari, mahalliy xususiyatlari va an'analarni saqlab qolish, ularni tadqiq etish va keng targ'ibot qilish ustuvor yo'nalishlardan biri hisoblanmoqda. Afsuski, hunarmandchilik an'alarining yo'qolishi, naqsh va bezaklarning bir xilligi, shuningdek, texnika vositalaridan foydalanish va suvenirning nazoratsiz ishlab chiqarilishi natijasida amaliy san'at mahsulotlarining badiiy sifati pasayib bormoqda. Hozirgi vaqtda jahon miqyosida katta siyosiy va iqtisodiy o'zgarishlar ro'y berayotgan bo'lib, ular har doim ham mamlakatlar va hududlarning ijtimoiy, madaniy va badiiy hayotiga ijobiy ta'sir ko'rsatavermaydi, shuning uchun ham an'anaviy hunarmandchilikni tarixiy davomiylik nuqtai nazaridan saqlab qolish va rivojlantirish dolzarb vazifa hisoblanadi.

Jahon san'atshunoslik ilmida hozirgi globallashuv sharoitida yuz berayotgan o'zgarishlarning moddiy va nomoddiy madaniy merosga, islom san'ati, xususan amaliy-bezak san'atiga ta'sirini tadqiq qilish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Dunyoning bir qancha ilmiy tadqiqot muassasalari, universitet va muzeylarida amaliy-bezak san'atining ijtimoiy ahamiyati, turlari, badiiy bezalishi keng miqyosda tadqiq qilinmoqda. Amaliy-bezak san'atining rivojlanish bosqichlarini fanlararo tadqiqotlar asosida ochib berish, milliy, mintaqaviy va hududiy qiyoslash, umumiy va o'zaro ta'sirlarni baholash, har bir naqshning semantikasi, tuzilishi va qo'llanishini tadqiq qilish zarurati yuzaga kelmoqda.

Mustaqillik yillarida o'zbek milliy madaniy merosining amaliy bezak san'ati kabi noyob va kam o'rganilgan ajralmas qismini tadqiq etilishi milliy o'zlikni saqlab qolishga, jamiyatning ma'naviy madaniyatini yanada yuksaltirishga xizmat qilmoqda. Keyingi yillarda badiiy hunarmandchilikni saqlash, tiklash va yanada rivojlantirish maqsadida "Tasviriy va amaliy san'at xalqaro biennalisi" (Toshkent sh.), "Atlas bayrami" xalqaro festivali (Marg'ilon sh.), "Xalqaro hunarmandchilik festivali" (Qo'qon sh.), "Zargarlik va zardo'zlik" xalqaro festivali (Buxoro sh.), "Xalqaro kulollar forumi" (Rishton sh.) tashkil qilindi hamda bozor iqtisodiyoti sharoitida xalq ustalarini moliyaviy rag'batlantirish va ijtimoiy e'tirof etish maqsadida "Hunarmand" uyushmasi tomonidan keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. "Bebaho boyligimiz bo'lgan tilimiz va adabiyotimiz, tariximiz, madaniyatimiz va san'atimizni ham chuqur o'rganishimiz zarur. Taraqqiyotimizning bitta ustuni iqtisodiyot bo'lsa, ikkinchisi ma'naviyat va ma'rifat bo'ladi. Shuning uchun, bizni jahonga tanitib, yoshlarni kamol toptiradigan kuch – bu tariximiz, milliy qadriyatlarimiz, madaniy merosimiz va biz bu sohadagi tadqiqotlarni qo'llab-quvvatlaymiz"¹. Bu bugungi kunda badiiy hunarmandchilikning yo'qolib ketgan turlari va texnologik uslublarini, bezaklarini, mahalliy xususiyatlarni tiklash hamda boyitishda asos bo'lib xizmat qilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 17-noyabrdagi PF–5242-son "Hunarmandchilikni yanada rivojlantirish va hunarmandlarni har tomonlama

¹ Mirziyoev Sh.M. Erkin, obod va farovon mamlakatni –Yangi O'zbekistonni barchamiz birgalikda barpo etamiz. Toshkent: O'zbekiston, 2023.– B. 75.

qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2023-yil 12-iyundagi PF-91-son “Aholini hunarmandchilikka jalb qilish va hunarmandchilik faoliyatini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonlari, 2017-yil 16-avgustdagi PQ–3219-son “O‘zbekiston Badiiy akademiyasi faoliyatini rivojlantirish va yanada takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2017-yil 17-noyabrdagi PQ–3393-son “Hunarmand” uyushmasi faoliyatini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”, 2019-yil 28-noyabrdagi PQ-4539-son “Hunarmandchilikni yanada rivojlantirish va hunarmandlarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorlari va boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan muhim vazifalarning ijrosini ta‘minlashda mazkur dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi-ning ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi². O‘zbekiston badiiy merosiga aloqador ba‘zi masalalar bir qator xorijiy ilmiy markazlar va oliy ta‘lim muassasalari, muzeylar jumladan, Shtutgart Linden muzeyi, Berlin Etnologiya muzeyi (Germaniya), Metropoliten muzeyi (AQSh), Sankt-Peterburg davlat Ermitaji, Sharq davlat muzeyi, Etnografiya muzeyi (Rossiya), Lyublin texnologiya universiteti (Polsha), Bosfor universiteti (Turkiya), Leyden universiteti (Niderlandiya)da, shuningdek, Kanada, Fransiya, Italiya, Rossiya, Yaponiya, Turkiya, Angliya, Chexiya, Hindiston va boshqa davlatlarda ilmiy-tadqiqot ishlari bajarilmoqda.

IX-XXI asr boshlari Xoram amaliy san‘ati rivojlanishining asosiy bosqichlari va badiiy xususiyatlari asosida: Xiva xonligi hunarmandchiligi, ot anjomlari, qurol-aslahalar, kiyim-kechaklar, Xorazm taqinchoqlari, kulolchilikning shakli, rang va naqsh singari badiiy jihatlari aniqlangan (Shtutgart Linden muzeyi, Germaniya); Xorazm zargarlik taqinchoqlarining bo‘linish turlari (erkaklar, ayollar va bolalar), tuzilishi (oddiy, murakkab) texnikasi (bosma, qadama, hallash) va badiiy xususiyatlari (shakli, rangli, bezaklari) asoslangan (Berlin Etnologiya muzeyi, Germaniya); kandakorlik san‘atida o‘simliksimon, geometrik va xattotlik bezaklarining keng qo‘llanishi dalillangan (Metropoliten muzeyi, AQSh); bodiya, chanoq, cho‘girma qolipi, qumg‘on, tung, tuncha, osmaduzi, manglayduzi, yarimtirnoq, butuntirnoq kabi buyumlarning yasash va bezash jihatlari aniqlangan (Sharq davlat muzeyi, Rossiya Federatsiyasi); Etnografiya muzeyi fondidagi Xorazm zargarlik, kandakorlik va kulolchilik buyumlari XVIII-XIX asrlarga oidligi, hamshamdor va nafis ishlanganligi aniqlangan (Etnografiya muzeyi, Rossiya

² Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi <https://chrome.&sourceid>; <https://www.iaaw.hu-berlin.de/>; <https://smapse.ru/bosphorus-university/>; https://www.unipage.net/ru/208/leiden_university/; <https://bc.pollub.pl/>; <https://Metropoliten-muzey/>; <https://legacy.uz/uz/zhild-8/>; <https://www.cambridge-centralasia.org/>; <https://dzen.ru/media/id/>; <https://www.amazon.com/>; <https://society.uz/uz/culture/> va boshqa manbalar asosida tayyorlandi.

Federatsiyasi); “3D DIGITAL SILK ROAD” loyihasi doirasida Urganch universiteti olimlari bilan hamkorlikda Xiva shahridagi tarixiy yodgorliklarni raqamlashtirish ishlari amalga oshirilib, me’moriy yodgorliklardagi bezaklarning mohiyati asoslangan (Lyublin texnologiya universiteti, Polsha).

Jahon san’atshunosligida islom san’ati, jumladan, quyidagi ustuvor yo’nalishlarda ilmiy tadqiq ishlari olib borilmoqda: badiiy hunarmandchilikni davrlashtirish, amaliy-bezak san’atiga ta’sir o’tkazgan ijtimoiy-siyosiy omillar, naqsh kompozitsiyalari, ularning tuzilishi, rangi, semantikasi hamda milliy, mintaqaviy va hududiy xususiyatlari, maishiy va me’morchilik bilan bog’liq turlari, ishlash texnikasi va boshqalar.

Muammoning o’rganilganlik darajasi. Mavzuga oid ilmiy adabiyotlarga sharh tadqiqotning birinchi bobida batafsil keltirilgan. Bu o’rinda masalaning tarixshunosligidagi asosiy yo’nalish va tendensiyalari hamda tadqiqotchilarning ism-shariflari qayd qilinadi. IX–XXI asr boshida Xorazm amaliy san’ati masalasi ko’plab san’atshunos, tarixchi, etnograf va me’morchilik mutaxassislari tadqiqotlarida bayon etilgan, ammo bu mavzu san’atshunoslik fani nuqtai nazaridan alohida o’rganilmagan. Adabiyotlar sharhi sohalar kesimida ko’rib chiqildi. Bunda: 1) arxeologik tadqiqotlarda amaliy san’atning o’rganilishi; 2) O’rta asr yozma manbalarida amaliy-bezak san’ati haqida ma’lumotlar; 3) Xorazm amaliy-bezak san’atini etnografik va san’atshunoslik jihatdan tadqiq qilinishi.

Xorazm arxeologiyasi bilan shug’ullangan arxeologlar S.P.Tolstov, A.Yu.Yakubovskiy, Ya.G’.G’ulomov, N.Yu.Vishnevskaya, E.E.Nerazik, M.G.Vorobyeva, N.N.Vakturskaya, Yu.P.Manilov, V.N.Yagodin, T.K.Xodjaye, M.Sh.Kdirniyazov, O.Dospanov, G.A.Turgenov-Amitirov, T.P.Abdullayev, A.D.Iskenderova, S.T.Saipov, B.P.Sadullayev va boshqalarning tadqiqotlarida IX–XVIII asr amaliy san’at asarlari haqida ayrim ma’lumotlar keltirilgan.

O’rta asrlarga oid yozma manbalarda ham Xorazm amaliy san’atini yorituvchi ba’zi ma’lumotlar keltirilgan, xususan, Yoqut al Hamaviyning “Mu’jam al buldon”, Plano Karpining Mo’g’ullar tarixi, Ibn Battutaning “Sayohatnoma”, Sharafiddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma”, Nizomiddin Shomiyning “Zafarnoma”, Abdurazzoq Samarqandiyning Matlayi sadayin va majmayi bahrayin”, Boburning Boburnoma, Abulg’oziy Bahodirxonning “Shajarayi turk”, Munis va Ogahiyning “Firdavs ul iqbol”, Ogahiyning tarixiy asarlari, shuningdek turli davrlarda Xorazmga tashrif buyurgan savdogar, sayyoh, elchilarning ma’lumotlari, rus sharqshunoslarining asarlari mavjud.

Tarixchi-etnograf olimlarning har bir davrning ijtimoiy-siyosiy holati, hunarmandchilik va uning ijtimoiy ahamiyati bilan bog’liq tadqiqotlari mavzuni yoritishda muhim manba hisoblanadi. Jumladan, M.V.Sazanova, K.L.Zadixina, T.A.Jdanko, I.M.Jabborov, O. A. Suxareva, A. A. Pisarchik, L. A. Goncharova, R. G. Mukminova, Ye.M.Peshereva, P. P. Kornikov, A. I. Sidorenko, G.A.Agzamova, S.T.Davlatova, S. To’raeva, Yu.Rahmonova, U.Sheripov, Sh. Nurullayeva, Z. Abidova, S.Matkarimova, Sh.S. Matyakubov va boshqalar.

Xorazm amaliy-bezak san’atiga bag’ishlangan san’atshunoslik ilmiy tadqiqot ishlari kam sonli, ammo ko’pgina mualliflar o’z tadqiqotlarida ayrim jihatlarni yoritishga harakat qilganlar. B. Veymarn, B. Denike, I. Notkin, V. Bulatova,

G.A.Pugachenkova, L.I.Rempel, L. Mankovskaya, M. Rahimov, B. Sergeyev, T. Abdullayev, A. Boltayev, D. Faxreddinova, N. Sodiqova, P.Sh.Zohidov, A. A.Hakimov, K.B. Akilova, E. F.Gyul, S. Sh.Alieva, S. Bulatov, O. Xo‘janiyozova, M.S.Abdullaev va boshqalarning kitob, dissertatsiya va maqolalarida keltirilgan.

Xorazm amaliy san‘ati bilan bog‘liq ayrim ma‘lumotlar J. Xeynbey, R. Shekspir, H. Kollet, H. Vamberi, J. Abbat, X. Mazer, F.Barnabi, J. Mak-Gaxan, R.Ettinghauzen va O.Grabar, L.Bretaniskiy, M. Pavaloy, Y.Kalter, B.Vollenveber, P.Franke, X.Yusupov kabi xorijlik sayyohlar, olimlarning asar va maqolalarida keltirilgan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalarini bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya San‘atshunoslik instituti ilmiy tadqiqot ishlari rejalariga muvofiq “O‘zbekiston tasviriy va amaliy san‘atida an‘analarning tarixiy davomiyligi” mavzusidagi ilmiy yo‘nalish doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi IX asrdan hozirgi kungacha Xorazm amaliy san‘ati taraqqiyotining umumiy manzarasi, uning asosiy bosqichlari va mahalliy badiiy xususiyatlarini aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Xorazm amaliy san‘ati rivojining asosiy bosqichlarini jamiyatning tarixiy-madaniy va ijtimoiy-iqtisodiy rivoji kesimida tasniflash hamda rivojlanishiga ta‘sir ko‘rsatgan asosiy tarixiy omillarni aniqlash;

Xorazm amaliy san‘atini Islom san‘atining bir qismi sifatida sho‘kllanishni asoslash;

Xorazm amaliy san‘atining texnologik va badiiy uslublarni, shuningdek turli turlarda usullarning o‘zgarishini tadqiq qilish;

amaliy san‘at buyumlarining Xorazm aholisining maishiy va xo‘jalik hayotida tutgan o‘rnini aniqlash (kulolchilik, kandakorlik, zargarlik, chitgarlik, gilamdo‘zlik va boshqalar);

Xorazm me‘morchiligida amaliy-bezak san‘atining o‘rnini belgilash (koshinkorlik, yog‘och, ganch va marmar o‘ymakorligi misolida);

Xorazm amaliy san‘ati an‘analarini saqlab qolish, qayta tiklash va ijodiy rivojlantirish bo‘yicha tavsiyalar va takliflarni ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida Xorazm amaliy san‘atining rivojlanish jarayoni, mahalliy xususiyatlari, o‘ziga xosligi, bezaklar va me‘moriy uyg‘unlik, shuningdek, ustoz-shogird munosabatlari olingan.

Tadqiqotning predmetini IX-XXI asr boshida yaratilgan Xorazm amaliy-bezak san‘ati namunalari va me‘moriy yodgorliklarining bezaklari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotning nazariy-metadologik asosini zamonaviy san‘atshunoslikdagi tarixiy-madaniy, tahliliy, qiyosiy-tipologik san‘atshunoslik usullari hamda amaliy-bezak san‘ati namunalari nafaqat maishiy va badiiy, balki muhim madaniy-tarixiy fenomen sifatida baholash imkonini beruvchi fanlararo yondoshuv tashkil etadi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

IX-XXI asr boshlarida amaliy-bezak sohalarining rivojiga buyum turlarining ko'payishi (bodiya, chanoq, gupi, qumg'on, tung, tuncha, bodomoy, manglayduzi, yarimtirnoq, butuntirnoq va b.), naqsh va bezaklar (o'simliksimon, geometrik va ramziy) va ularning ishlash texnologiyasining murakkablashishi (kandakori, qolipi, o'yma, bosma, qadama, hallash), yangi bezak shakllarining vujudga kelishi ("bo'g'irsoq", "miltiq", "dutor", "pichoq")ga markazlashish, iqtisodiy barqarorlik singari ijtimoiy-siyosiy jarayonlarning ta'sir ko'rsatganligi aniqlangan;

Xorazm amaliy san'atida *naqsh tizimi* – islmiy, girih, kosmogonik, zoomorf, ramziy; shakllarning o'ziga xosligi – *kulolchilikda* bodiya, cho'girma qolipi, *kandakorlikda* qumg'on, tung, tuncha, *zargarlikda* tojduzi, manglayduzi, tayaxduzi, osmaduzi, kalitbog'i; *rang xususiyatlari* – *kulolchilikda* moviy, *zargarlikda* qizil, yashil, moviy, rangli toshlarning birgalikda ishatilishi, *kandakorlik, yog'och o'ymakorligida* bo'yoqning qo'llanmasligi) kabi mahalliy xususiyatlari ochib berilgan;

Xorazm amaliy san'atining yo'qolib ketgan chitgarlik, milliy chopon tayyorlash, etikdo'zlik, pichoqchilik kabi turlari; bodomoy, duoduzi, osmaduzi, taxyaduzi, ko'krakduzi taqinchoqlari hamda *chitgarlikda* qolipi bosma, *zargarlikda* toblash, urma, qadama kabi badiiy-texnologik uslublarni tiklash asoslangan;

Xiva me'moriy inshootlarining koshinpazlik, yog'och o'ymakorligi, ganch va marmar o'ymakorligi turlarida o'simliksimon, geometrik va xattotlik shaklida "aylanma islmiy", "madohil", "mehrobi", "turunj", "kungura", "chetan", "arqon" kabi qo'llanilganligi aniqlangan;

Xorazm amaliy san'atining rivojlanish jarayonlari kulolchilik va kandakorlikning taraqqiy etishi, tasvirlarning yo'qola borishi, yozuvlarning bezak sifatida ishlatilishi, o'simliksimon va geometrik naqshlarning keng qo'llanishi (IX-XV asrlar); amaliy san'at maktabining shakllanishi, maishiy turmush bilan bog'liq – kulolchilik, kandakorlik, zargarlik, badiiy matosozlik, me'morchilik bilan bog'liq – koshinpazlik, yog'och, ganch va marmar o'ymakorligi sohalarining taraqqiy etishi (XVIII-XX asr boshlari); hunarmandchilikning inqirozi, yog'och o'ymakori, kandakor va ganch o'ymakori ustalarining ijodiy faoliyatida an'analarning saqlab qolinishi (1920–1980-yy.); kulolchilik, ipak gilamdo'zligi, milliy qo'g'irchoqlar tayyorlash sohalarida an'analarning tiklanishi (Mustaqillik yillari) kabi omillar bilan isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:

Dissertatsiyaning natijalari O'zbekiston Badiiy akademiyasi va "Hunarmand" uyushmasining amaliy san'at va badiiy hunarmandchilik sohasidagi festivallari doirasida ko'rgazmalar hamda ilmiy anjumanlarning loyihalari konsepsiyalarini tayyorlashda ishlatilgan;

tadqiqotchining ilmiy tavsiyalari asosida "Ichan qal'a" davlat muzey qo'riqxonasida "Dorul hikmat val maorif", "Qadimgi Xorazm", "Xorazmshohlar" va "Xorazm xonlari" ekspozitsiyalari, Xorazm Ma'mun akademiyasi qoshidagi "Xorazm tarixi va madaniyati" doimiy ekspozitsiyasi, Nurullaboy majmuasidagi Ibrohim xo'ja uy muzeyi interyeri tashkil etilgan;

O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi muzeyining Birinchi Renessans va Ikkinchi Renessans ekspozitsiyalari, “Ichan qal’a” muzey qo‘riqxonasiidagi Amaliy san’at ekspozitsiyasi hamda san’atshunos O.Sultonovning shaxsiy kolleksiyasi ilmiy va uslubiy jihatdan takomillashtirilgan;

tadqiqot natijalari asosida Xorazm pichoqchiligi va chitgarligi, shuningdek Xorazm milliy choponi va oq etikni tayyorlash texnologiyasi aniqlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi muammoning aniq qo‘yilgani, chiqarilgan xulosalarning tarixiy-madaniy, tahliliy, qiyosiy-tipologik kabi usullar bilan asoslangani, Xorazm amaliy san’atining turli davrlarga oid manbalari (muzey eksponatlari, tarixiy yodgorliklar bezaklari, qo‘lyozma va arxiv manbalari, dala yozuvlari)ga tayanilganligi, ishlab chiqilgan xulosa va takliflar amaliyotda joriy qilinganligi, tegishli tashkilot va muassasalar tomonidan olingan natijalarning tasdiqlanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati milliy an’analarni saqlab qolish hamda amaliy-bezak san’atining ayrim muammolari yechimiga, Xorazmning IX–XXI asr boshlaridagi amaliy san’atini o‘rganish orqali san’atshunoslikning metodologik imkoniyatlarini kengaytirish va nazariy tamoyillarni boyitish, shuningdek, respublika oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun maxsus kurslar bo‘yicha o‘quv dasturlari va qo‘llanmalar, darslik va monografiyalar yaratishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati muzeylarda elektron shakldagi kataloglashtirish va inventarlash jarayonida, shuningdek, Xorazmning an’anaviy hunarmandchiligini yanada rivojlantirish va tiklash bo‘yicha materiallar va tavsiyalardan yurtimizga sayyohlarni jalb qilishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. IX–XXI asr boshlari Xorazm amaliy-bezak san’ati: rivojlanishining asosiy bosqichlari va badiiy xususiyatlari bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

IX–XXI asr boshlarida amaliy-bezak sohalarining rivojiga buyum turlarining ko‘payishi (bodiya, chanoq, gupi, qumg‘on, tung, tuncha, bodomoy, manglayduzi, yarimtirnoq, butuntirnoq va b.), naqsh va bezaklar (o‘simliksimon, geometrik va ramziy) va ularning ishlash texnologiyasining murakkablashishi (kandakori, qolipi, o‘yma, bosma, qadama, hallash), yangi bezak shakllarining vujudga kelishi (“bo‘g‘irsoq”, “miltiq”, “dutor”, “pichoq”)ga markazlashish, iqtisodiy barqarorlik, homiylik, qo‘shnichilik munosabatlari singari ijtimoiy-siyosiy jarayonlarning ta’sir ko‘rsatganligi Xorazm Ma’mun akademiyasi qoshidagi “Xorazm tarixi va madaniyati” doimiy ekspozitsiyasini tashkil qilishda, ekskursiya jarayonlarida va doimiy ekspozitsiyaning elektron variantini yaratishda tatbiq etilgan (O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining 2025-yil 5-apreldagi 3/1255-908-son ma’lumotnomasi). Ilmiy natijalarning tatbiqi doimiy ekspozitsiyaga sayyohlar qiziqishini orttirgan va Xorazm amaliy san’atini keng targ‘ib qilishga xizmat qilgan;

Xorazm amaliy san’atida *naqsh tizimi* – islmiy, girih, kosmogonik, zoomorf, ramziy; shakllarning o‘ziga xosligi – *kulolchilikda* bodiya, cho‘girma qolipi, *kandakorlikda* qumg‘on, tung, tuncha, *zargarlikda* tojduzi, manglayduzi, tayaxduzi, osmaduzi, kalitbog‘i; *rang xususiyatlari* – *kulolchilikda* moviy, *zargarlikda* qizil,

yashil, moviy, rangli toshlarning birgalikda ishlatilishi, *kandakorlik*, *yog‘och o‘ymakorligida* bo‘yoqning qo‘llanmasligi) kabi mahalliy xususiyatlari O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi muzeyning “Amaliy san‘at va hunarmandchilik” bo‘limi ekspozitsiyasini shakllantirishda foydalanilgan (O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazining 2025-yil 24-martdagi 05-14/127-son ma‘lumotnomasi). Natijada muzey ekspozitsiyasi ilmiy jihatdan asoslangan hamda amaliy san‘atning o‘ziga xosligi ochib berilgan;

Xorazm amaliy san‘atining XX asrda unutilgan chitgarlik, milliy chopon tayyorlash, etikdo‘zlik, pichoqchilik turlari; bodomoy, duoduzi, osmaduzi, taxyaduzi, ko‘krakduzi hamda *chitgarlikda* qolipi bosma, *zargarlikda* toblash, urma, qadama kabi badiiy-texnologik uslublarni tiklash asoslanganligi asoslanganligi Respublika “Hunarmand” uyushmasi faoliyatida Xalqaro festivallar doirasida ilmiy-amaliy anjumanlar va ilmiy seminarlarni konsepsiyalarini tayyorlashda foydalanilgan, jumladan Xalqaro hunarmandchilik festivali (Qo‘qon, 2019, 2023), Atlas bayrami (Marg‘ilon, 2022, 2024), Xalqaro kulolchilik festivali (Rishton, 2023, 2024), Zardo‘zlik va zargarlik (Buxoro, 2024) (O‘zbekiston “Hunarmand” uyushmasining 2025-yil 13-martdagi 01-01/3132-son ma‘lumotnomasi). Natijada an‘anaviy hunarmandchilik turlarining xalqaro miqyosda tan olinishi va targ‘ibotiga xizmat qilgan;

Xiva me‘moriy inshootlarining koshinpazlik, yog‘och o‘ymakorligi, ganch va marmar o‘ymakorligi turlarida o‘simliksimon, geometrik va xattotlik shaklida “aylanma islamiy”, “madohil”, “mehrobi”, “turunj”, “kungura”, “chetan”, “arqon” kabi qo‘llanilganligi kabi ma‘lumotlar, materiallar, ilmiy xulosalar va tavsiyalardan “O‘zbekiston tarixi” telekanalining “Tarixiy savol”, “Aslida qanday?”, “Mavzu”, “Ko‘hna manzillar” ko‘rsatuvlari ssenariylarini tayyorlashda foydalanilgan (“O‘zbekiston” teleradiokompaniyasining 2025-yil 20-martdagi 01-30/169-son ma‘lumotnomasi). Bu ma‘lumotlar Xorazm amaliy san‘atini saqlash, ta‘mirlash va xalqimizga namoyish etishda muhim o‘rin tutgan.

Xorazm amaliy san‘atining rivojlanish jarayonlari kulolchilik va kandakorlikning taraqqiy etishi, tasvirlarning yo‘qola borishi, yozuvlarning bezak sifatida ishlatilishi, o‘simliksimon va geometrik naqshlarning keng qo‘llanishi (IX-XV asrlar); amaliy san‘at maktabining shakllanishi, maishiy turmush bilan bog‘liq – kulolchilik, kandakorlik, zargarlik, badiiy matosozlik, me‘morchilik bilan bog‘liq – koshinpazlik, yog‘och, ganch va marmar o‘ymakorligi sohalarining taraqqiy etishi (XVIII-XX asr boshlari); hunarmandchilikning inqirozi, yog‘och o‘ymakori, kandakor va ganch o‘ymakori ustalarining ijodiy faoliyatida an‘analarning saqlab qolinishi (1920–1980-yy.); kulolchilik, ipak gilamdo‘zligi, badiiy matolar, milliy qo‘g‘irchoqlar tayyorlash sohalarida an‘analarning tiklanishi (Mustaqillik yillari) kabi omillar “Ichan qal‘a” davlat muzey qo‘riqxonasida “Dorul hikmat val maorif”, “Qadimgi Xorazm”, “Xorazmshohlar” ekspozitsiyalarini konsepsiyasi va mavzuli-ekspozitsiya rejasini tayyorlashda, Amaliy san‘at va hunarmandchilik bo‘limlari ekspozitsiyalarini ilmiy va uslubiy jihatdan takomillashtirishda, muzeylarda amaliy san‘at buyumlarini katalogizatsiya va inventarizatsiya qilishda, ekspozitsiyalarni boyitishda hamda ekskursiya jarayonlarida keng foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining 2025-yil 5-apreldagi 3/1255-908-son

ma'lumotnomasi). Ilmiy natijalarning qo'llanishi muzeyning ish samaradorligini oshirgan, sayyohlarga eksponatlar mazmun-mohiyatini tushuntirishda va amaliy san'atni keng targ'ib qilishda qo'llanilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 15 ta ilmiy-amaliy anjumanda, shu jumladan 8 ta respublika va 7 ta xalqaro konferensiyalarda jamoatchilik muhokamasidan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 36 ta ilmiy ish, jumladan 2 ta monografiya, 1 ta darslik va 17 ta ilmiy maqola nashr etilgan. O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 15 ta maqola, jumladan, 10 tasi respublika hamda 5 tasi xorijiy jurnalda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovadan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 242 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **Kirish** qismida tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, mavzuga oid xorijiy tadqiqotlar sharhi, muammoning o'rganilganlik darajasi, tadqiqotning maqsad va vazifalari, ob'ekti va predmeti aniqlangan, tadqiqot usullari, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon etilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinganligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, nashr qilingan ishlar, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi ko'rsatilgan.

Tadqiqotning **I bobi "Xorazm amaliy-bezak san'atining arxeologik, yozma va etnografik manbalarda o'rganilishi"** deb nomlangan bo'lib, 3 ta bo'limdan iborat. Mazkur bobda mavzuning o'rganilishi, arxeologik materiallar, yozma manbalar, etnografik va san'atshunoslik jihatidan tadqiq qilinishiga bag'ishlangan.

Birinchi bobning birinchi bo'limi **"Arxeologik tadqiqotlarda amaliy san'atning o'rganilishi"** deb nomlangan bo'lib, unda Xorazm vohasi hududida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar, ular natijasida topilgan san'atga doir materiallar tadqiq qilingan. Xorazmning o'rta asr tarixini izchil o'rganishning boshlanishi XX asrning 20–30-yillariga to'g'ri keladi. Tadqiqotlar natijalari A.Yu.Yakubovskiy, S.P.Tolstov singari mualliflarning asarlarida o'z aksini topgan. Xorazmning rivojlangan o'rta asrlar davri tarixiy yodgorliklarini o'rganishning ikkinchi bosqichi 1937-yilda S.P.Tolstov rahbarligidagi Xorazm arxeologik-etnografik ekspeditsiyasining tashkil etilishi bilan bog'liq. Uzoq yillar mobaynida ekspeditsiya a'zolari tomonidan ko'plab o'rta asr yodgorliklari – shahar va qishloqlar, karvonsaroylar, me'moriy yodgorliklar topib tekshirildi. Ko'hna Urganch, Shemaxaqal'a, Shohsanam, Shehrluk shaharlari hududlarida keng ko'lamlilik qazishmalar olib borildi.

1948-yili N.N.Vakturskaya Shemaxaqal'aning markaziy qismida qazishmalar olib boradi. Ammo tadqiqotchining ishlarida hunarmandchilik tarixini yoritish uchun muhim ashyoviy dalil vazifasini o'tovchi qimmatli topilmalar keltirilgan bo'lishiga qaramasdan, buyum turlari va shukllari, ularga bezak tushirish, badiiy xususiyatlari

tahlil qilinmagan. X-XIII asr boshlariga oid sopol buyumlar badiiy jihatdan yuqori saviyada ishlangan. Oltin O‘rda davri sopol buyumlarida badiiy sifatning ancha tushganini kuzatish mumkin. 1958–1960-yillarda Hazoraspda olib borilgan arxeologik izlanishlar natijasida rivojlangan o‘rta asrlar davri madaniy qatlamlari ochib o‘rganilgan³. Topilgan materiallar orasida shisha va bronza buyumlar, kulolchilik mahsulotlari ko‘pchilikni tashkil etadi. Shisha buyumlar o‘zining nafisligi, o‘ziga xos shakllari bilan ajralib turadi. Shu davrga oid bronza patnis, shamdon, tarozi pallas kabi artefaktlar Xorazmda bu X-XII asrlarda kandakorlik sohasi ancha rivojlanganligini ko‘rsatadi. Topilmalarning aksariyat katta qismini sirkori sopol buyumlar tashkil etadi.

1962-, 1964–1965-yillarda Mizdahkonda O‘zR FA Qoraqalpog‘iston filiali ekspeditsiyasi tadqiqotlar olib bordi. 1963-, 1968–1971-yillarda Yu.P.Manilov tomonidan Qiyot, Abumuslimqal’a, Janpiqqal’a hududlari hamda Janpiqqal’a maqbarasida arxeologik izlanishlar olib borilgan⁴.

Xorazm arxeologik ekspeditsiyasining taniqli tadqiqotchilaridan Ye.E.Nerazik 1966–1971-yillarda olib borgan tadqiqotlari natijasida Akcha Gelin, Shohsanam, Ko‘hna Uvaz, Yorbakirqal’a, Qizilchaqal’a va Qavatqal’a hududlaridan o‘ziga xos tarixiy-madaniy yodgorliklarni kashf etgan.

XX asrning 80-yillarda olib borilgan tadqiqotlar natijasida Janpiqqal’adagi hunarmandchilik mahallalari ochib o‘rganilgan. Mizdahkon va Janpiqqal’ada olib borilgan tadqiqotlar natijalari Xorazm shaharlarining rivojlangan o‘rta asrlar davridagi madaniyati va hunarmandchiligiga oid bilimlarni to‘ldirishga xizmat qiladi. Ayrim noyob topilmalar haqidagi ma’lumotlar V.N.Yagodin, M.M.Mambetullaev, Yu.P.Manilov, G.X.Xojaniyozov, M.-Sh.Qdirniyozovlarning tadqiqotlarida aks etgan. Ammo bu mualliflar buyumlarga umumiy tavsif berish bilan cheklanganlar.

Keyingi yillarda S.Baratov, Q.Sabirov, A.Abdirimov, B.Sadullaev kabi arxeologlar Janubiy Xorazm hududida tadqiqot ishlarini olib borib, Meshekli, Hazorasp, Olmaotishgan -2, Sandiqlitepa, Qalajiq qal’a, Kat qal’a yodgorliklaridan IV-XIX asrlarga oid kulolchilik, metall va shisha buyumlar qoldiqlarini topishga muvaffaq bo‘ldilar. Bu davrda kulolchilik yassi va tik idishlar yasash rivojlangan. Yassi idishlardan turli bodiyalar, lagan, kosalar tayyorlangan bo‘lsa, tik idishlardan nafis ko‘zalar tayyorlangan. Buyumlarga o‘simliksimon va geometrik naqshlar tushirilgan. Arxeologik topilmalarni ichida chiroqdonlar ko‘p uchraydi. Sirlangan chiroqdonlar turli ranglarda tayyorlangan. Shuni aytish joizki, ko‘pgina asar va tadqiqotlarda o‘rta asrlar madaniy qatlamlaridan topilgan temir, jez, zargarlik buyumlari va shishasozlik mahsulotlari qayd qilingan bo‘lsa-da, san’atshunoslik nuqtai nazaridan o‘rganilmagan.

Birinchi bobning ikkinchi bo‘limi **“O‘rta asrlar yozma manbalarida amaliy-bezak san’ati haqidagi ma’lumotlar”** deb nomlangan. San’atshunoslik bilan bog‘liq materiallar asosida Xorazm amaliy san’atini tadqiq qilish bo‘yicha IX-XIX asr yozma manbalari shartli ravishda quyidagicha guruhlash mumkin: 1) XI-XIII asr

³ Воробьева М.Г., Лапиров-Скобло М.С., Неразик Е.Е. Археологические работы в Хазараспе в 1958-1960 гг. // МХЭ. – М., 1963. Вып. 6. – С. 169, 174.

⁴ Манылов Ю.П. К изучению городища Кят // ВКК ФАН УзССР. – Нукус, 1966. – № 2. – С. 56.

boshlari yozma manbalari; 2) XIV-XV asrlar yozma manbalari; 3) XVI-XVII asrlar yozma manbalari; 4) XVIII-XIX asr yozma manbalari.

XI-XIII asr boshlari va XIV-XV asrlarga oid ma'lumotlar arab sayyoh, geograf va tarixchilarining asarlarida saqlanib qolgan. Bu manbalarda hududlarni ta'riflashda shu davr hunarmandchiligi, qanday hunarmandchilik mahsulotlari savdo aloqalarida ko'p ishlatilganligi va ularni ayrim xususiyatlari haqida ma'lumotlar keltiriladi. Shuningdek, fors manbalarida ba'zi ma'lumotlar keltirilgan. XVI-XVII asrlarga oid yozma manbalar kam. Bu borada Abulg'oz Bahodirxonning Shajarai turk asari muhim ahamiyat kasb etadi. XVIII–XIX asrlarga oid manbalar oarsida mahalliy tarixnavislik maktabi vakillari Munis, Ogahiy va Bayoniylarning asarlarida hunarmandchilik bilan bog'liq ba'zi ma'lumotlar uchraydi. Shuningdek, bu davrdagi rus va boshqa chet mamlakatlar elchilari va sayyohlari asarlarida ma'lumotlar mavjud.

XII-XIV asrlar arab-fors muarrixlari, geograf va sayyohlari - al- Muqaddasiy, Yoqut al Hamaviy, Zakariyo al-Qazviniy, al-Qurayshiy, an-Nuvayriy, Ibn Abduzuhr, Ibn Battuta, yevropalik sayyoh Plano Karpini, italyan Fransisko de Balduchchi Pegolotti va boshqalar Xorazmning shu davr shaharlariga tashrif buyurishgan, shaharlarning hunarmandchiligi, me'morchiligi, savdo-sotig'i, xususan qanday mahsulotlar ishlab chiqarilgani hamda sotilgani haqida ma'lumotlar yozib qoldirishgan. Xorazmda hunarmandchiligi kechgan voqealar silsilasi va vohaning xo'jalik hayotini kesimida o'rganishda Temuriylar davri tarixchilarining asarlari ham muhim rol o'ynaydi. Nizomiddin Shomiy⁵, Sharafuddin Ali Yazdiy⁶, Abdurazzoq Samarqandiyni⁷ asarlari shular jumlasidandir. XVI asr tarixchisi Xondamirning asarida ham Xorazm shaharlari va xo'jaligi xususida ma'lumotlar mavjud⁸.

XVI–XVIII asrlarga oid muzey eksponatlari kam bo'lganligi bois asosiy e'tibor qo'lyozma manbalar va arxiv hujjatlariga qaratildi. Jumladan, Abulg'oz Bahodirxonning "Shajarai turk" va Xorazm Ma'mun akademiyasida amalga oshirilgan "Xiva xonlari davlat arxiv hujjatlari katalogi" mavzusidagi grant materiallari katta ahamiyat kasb etdi. XIX asrda ham Xorazmning XVII-XIX asrlar tarixiga oid ko'plab asarlar yaratildi. Munis, Ogahiy, G.Baziner, G.I.Danilevskiy, V.V.Grigorevlarning asarlari shular jumlasidandir. O'rganilayotgan davr muammolari XIX asr mualliflaridan A.L.Kun, A.N.Samoylovich, M.I.Ivaninlarning asarlarida ham ancha batafsil bayon qilingan. Shaharlar tavsiflanar ekan, ularda hunarmandchilikning ahvoli masalasiga ham qisman to'xtab o'tilgan.

Umuman olganda, so'ngi o'rta asrlar yozma manbalarida Xorazm hunarmandchiligiga oid ko'plab ma'lumotlar mavjud. Bular esa Xorazmning Markaziy Osiyoning xo'jalik jihatidan yuksak darajada rivojlangan hududlaridan

⁵ Nizomiddin Shomiy. Zafarnoma / Fors tilidan Yu.Hakimjonov tarjimasi. – Toshkent: O'zbekiston, 1996. – 528 b.

⁶ Sharafuddin Ali Yazdiy. Zafarnoma / Muhammad Ali ibn Darvish Ali al-Buxoriy tarjimasi. So'z boshi, tabdil, izohlar va ko'rsatkichlar mualliflari Ashraf Ahmad va H. Bobobekov. –Toshkent: Sharq, 1997. – 384 b.; МИТТ... Т. II. – С. 155-168; Тизенгаузен В.Г. Ко'rsatilgan asar. Т. II. – С. 144-190.

⁷ Abdurazzoq Samarqandiy. Matlai Sa'dayn va majmai bahrayn / Fors tilidan tarjima, so'zboshi va izohlar muallifi A.O'rinboev. – Toshkent: O'zbekiston, 2008. II jild, birinchi qism. – 132, 168, 231 b.; Ko'rsatilgan asar. II jild, ikkinchi va uchinchi qismlar. – 372, 394, 512 b.; Тизенгаузен В.Г. Ко'rsatilgan asar. Т. II. – С. 190-202.

⁸ Хондемир. История монголов / Перев. с персидского В.Григорьева. СПб., 1834.

biri ekanligini ta'kidlaydi. Lekin hunarmandchilik san'atshunoslik nuqtai nazaridan ilmiy jihatdan yetarlicha tadqiq etilmay keldi.

Birinchi bobning uchinchi bo'limi **“Xorazm amaliy-bezak san'atini etnografik va san'atshunoslik jihatdan tadqiq qilinishi”**ga bag'ishlangan. O.G.Bolshakov, R.G.Mukminova, O.A.Suxareva, M.V.Sazanova, K.L.Zadixina, T.A.Jdanko, I.M.Jabborov va boshqa etnograflarning asarlarida hunarmandchilikning tashkiliy masalalariga ko'proq e'tibor qaratilgan.

O'zbekiston hunarmandchiligi sohalariga bag'ishlangan O. A. Suxareva, A. A. Pisarchik, L. A. Goncharova, R. G. Mukminova, D. A. Faxretdinova, Ye.M.Pechereva, P. P. Kornikov, A. I. Sidorenko, A. R. Ortiqovlarning asarlari alohida ahamiyatga ega bo'lib, hunarmandchilikka oid ma'lumotlar yoritiladi.

Xorazmning o'rta asrlardagi hunarmandchilik tarixi va xomashyo manbalariga oid ma'lumotlarni tarixshunoslikka yo'naltirish muammolari ilmiy jihatdan urganish bo'yicha mustaqillik yillarida ancha ishlar amalga oshirilmoqda. Bu borada T.Abdullayev, Q. Masharipov, B.Turganov, B.Sadullayev va boshqalarning ilmiy ishlari shular jumlasidandir.

G.Agzamova, S.Davlatova, Z.Abidova, S.To'rayeva, Yu.Rahmonova, U.Sheripov, S.Matkarimovalar hunarmandchilik mahsulotlari, aholi turmush tarzi, madaniyati tarixiy etnografik jihatlar tahlil qilingan. Biroq ularda Xorazm hunarmandligining badiiy xususiyatlari o'rganilmagan.

A. Hakimov tadqiqotlarida Xorazm amaliy san'ati rivojlanishining muayyan jihatlari ochib berilgan bo'lsa-da, tadqiq etilayotgan davr tadqiqotning muhim predmeti sifatida o'rganilmagan⁹. D. Bobojonov va M.Abdullayevning kitobida Xorazmning XVI–XX asr boshida turli amaliy san'at turlari va mashhur ustalar haqida ma'lumot berilgan¹⁰.

M.Rahimov, S.Aliyeva kulolchilik, T.Abdullayev, B.Sergeyev miskarlik, D.Faxreddinova, N.Azizova zargarlik, A. Morozova, N. Sodiqova va Sh. Nurullayevalarning tadqiqotlarida kiyim-kechak tayyorlash masalalari qisman o'rganilgan. O.Xo'janiyozova XIX–XX asr Xorazm xalq badiiy kandakorligi va kulolchiligini tadqiq qilgan. V.Veymarn, B. Denike, G. Pugachenkova, L. Rempel, I. Notkin, V. Bulatova, L. Mankovskaya o'z tadqiqotlarida me'morchilikni tadqiq qilish jarayonida ularning bezaklarini ham o'rgangan. Umuman olganda, Xorazm amaliy-bezak san'ati tarixi bo'yicha ko'plab tadqiqotlar mavjud, mavzuni san'atshunoslik nuqtai nazaridan tadqiq etilishi uni to'laqonli yoritilishiga xizmat qiladi.

II bob “Xorazmda islom san'atining vujudga kelishi va rivoji (IX-XV asrlar)” deb nomlangan bo'lib, unda mazkur davrdagi ijtimoiy-madaniy jarayonlar,

⁹ Хакимов А. А. Искусство Узбекистана: история и современность. – Ташкент: San'at, 2010. – 502 с.; O'sha muallif. Искусство Хорезма: страницы истории культуры // San'at. – Ташкент, 2009. – № 4. – С. 9-10.; O'sha muallif. Прикладное искусство Узбекистана: традиции и инновации. – Ташкент: San'at, 2013. – 191 с.; O'sha muallif. Роль культуры и искусства в формировании государственности Хорезма / Хорезм в истории государственности Узбекистана. – Tashkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2013. – S. 272-295.; O'zbekiston san'ati tarixi. Toshkent, 2022. 528 b.; O'zbekiston amaliy san'at durdonalari. Toshkent, 2017. 484 b.; O'zbekiston hunarmandchiligi. Toshkent, 2023. 448 b.

¹⁰ Bobojonov D., Abdullayev M. Xorazm amaliy san'at ustalari. – Xiva: Xorazm Ma'mun akademiyasi, 2010. – 100 b.

ularning amaliy-bezak san'atiga ta'siri, kandaokrlik, kulolchilik, me'morchilik bilan bog'liq amaliy-bezak turlari tadqiq qilingan.

Ikkinchi bobning birinchi bo'limi **“IX-XV asrlarda Xorazmda ijtimoiy-siyosiy hayotning amaliy san'atga ta'siri”** deb nomlangan. Arab tarixchisi Istaxriy X asr boshlarida Xorazmda jami 9 tadan 13 tagacha shaharlar borligini qayd etgan bo'lsa, shundan yarim asr o'tgach, arab tarixchisi Muqaddasiy Xorazmdagi 40 ga yaqin shaharlar haqida aniq ma'lumotlar beradi. Davlat poytaxti va xalqaro savdo markazi bo'lgan Gurganjning shon-shuhrati va mavqei kundan-kun oshib boradi. Shaharda qurilish va obodonchilik ishlari rivoj topadi, ko'plab go'zal imoratlar, saroylar, karvonsaroy, gavjum bozorlar, mahobatli minora, masjid, madrasa, jamoat binolari bunyod etiladi.¹¹

996-yilda Shimoliy Xorazm amiri Ma'mun ibn Muhammad Xorazmniing ikkala qismini birlashtirdi, o'zini Xorazmshoh, Urganch shahrini Xorazmshohlar poytaxti deb e'lon qildi. 1017-yilda Xorazm davlati mustaqillikdan mahrum bo'lib, G'aznaviylar davlati tarkibiga kirdi.

Xorazm 1097-yilda markaziy hukumatdan ajralib mustaqil bo'lib chiqdi. Alovuddin Muhammad davrida bepoyon hududning yagona markaziy rahbarligi ostida birlashtirilishi iqtisodiy hayotning faollashuviga, shaharlarning kengayishiga, hunarmandchilik va savdoning rivojlanishiga olib keldi. Urganch yirik ma'muriy, madaniy markazga aylandi. 1219-yilda bu yerda bo'lgan Yoqut uni “Jayhun qirg'og'ida joylashgan aholisi ko'p, ulkan shahar” deya ataydi. U “Gurganchga qaraganda ulug'roq, boyroq va go'zalroq shaharni ko'rmadim” deya e'tirof qiladi¹². O'sha davrda Gurganchda hunarmandchilik yuqori darajaga ko'tarildi. Xorazmda hunarmandchilikning 50 dan ziyod turi bo'lgan.

Ikkinchi bobning ikkinchi bo'limi **“Kandakorlik va kulolchilik: rivoji va o'ziga xosliklar”** deb nomlangan bo'lib, unda IX-XV asrlarda Xorazm metalsozligi va kulolchiligi tadqiq qilingan.

Xorazmning badiiy metall mahsulotlari asosan aholining o'rta qatlamlari uchun mo'ljallangan turli xildagi bronza va misdan yasalgan idishlar bilan cheklanib qolmagan. Hukmdorlar va saroy zodagonlari hali ham dabdaba va saroy hayotining, bayramlar va kundalik turmushning ajralmas qismi, boylikning ramzi oltin, kumush va qimmatbaho toshlarni afzal ko'rar edilar. Afsuski, bizning davrimizga qadar oltin va kumushning juda kam namunalari saqlanib qolgan. XI asr boshlaridagi kumush idish bo'lib, unda G'aznaviylar sulolasi hukmdorlaridan biri tasvirlangan¹³, X asrga oid kichik kumush kosa, parranda qiz tasviri va uning figurasi atrofida forscha she'rlar bilan bitilgan bitik¹⁴, shuningdek, XI–XII asrlarga oid kumush va zarhallangan lagan ustidagi yozuv. Xorazmshoh Abu Ibrohim nomi bilan¹⁵, bu bizga uni Xorazm deb mahalliyashtirish imkonini beradi. X–XIII asr boshlaridagi Movarounnahrning bronza va mis mahsulotlarida o'sha davrning asosiy bezak tamoyillariga naqshning tekisligi, gilamlanishiga to'liqroq mos keladigan toblash,

¹¹ Якубовский А.Ю. Развалины Ургенча – Ленинград, 1930, с. 16.

¹² Tolstov S.P. Qadimgi Xorazm madaniyatini izlab. –M.-L., 1948, 277 b.

¹³Илясов Дж., Накимов А.А. 2012. 220-бет. 2-расм

¹⁴ The Art of Central Asia. 1988. III. 177.

¹⁵ The Art of Central Asia. 1988. III. 178.

kandakorlik, chizma bezash texnikasida ustuvor uslublarga aylandi. Islomgacha bo'lgan davrda ma'qul bo'lgan quyma oltin va kumushdan yasalgan idishlarning sirtini bezashda ilgari qo'llanilgan bo'rtma ishlov berish kamroq qo'llaniladi.

Xorazmning o'rta asr misgarlari tomonidan foydalanishiga ko'ra uy-ro'zg'or, oshxona, kundalik hayotda maxsus ahamiyatga ega va pardoz-andoz buyumlariga ajraladi. Yodgorliklardan topilgan kosa, piyola, tovoq, likobcha, qoshiq kabi ro'zg'or idishlari xilma-xil shakllari aniqlangan.

Xorazmning XII-XIII asrlar boshi Qavat qal'a, Qizil qal'a, Shemaxa qal'a va qishloq makonlari yodgorliklaridan bronza chiroq qismlari – quvur, ko'za, tuyoqcha, pastki taglik va boshqada qismlari topilgan. Bular orasida bronzadan quyma yasalgan, ot tuyog'i shaklidagi chiroq oyoqlari ko'plab uchraydi.

IX–XII asrlar zargarlik san'ati badiiy hunarmandchilikning boshqa turlari kabi uslubda bir xil o'zgarishlarga uchradi. Qushlar va hayvonlarning tasvirlari o'yilgan ko'plab bronza tumor-qulonlarni bezaklashda o'simlik-geometrik naqshning ortib borayotganligini kuzatish mumkin. Dumaloq medalonlarda zoomorfik tasvirlar bilan chegaradosh, ba'zan bo'rtma yoki o'yma uslubda arab yozuvida bitilgan xayrli tilaklar kiritilgan. O'sha davrda kumush, bronza va misdan yasalgan quyma buyumlar — kiyim ilgaklar, kamarning qadama bezaklari, sehrli va badiiy ahamiyatga ega bo'lgan tumor hamda qushlar va hayvonlar figuralari ko'rinishidagi nina to'g'nagichlar, morpech bilakuzuklar keng qo'llanilgan.

Xorazm kulolchiligi rivojining yangi bosqichi rivojlangan o'rta asrlarlarga to'g'ri keladi. Bu davrga oid kulolchilik mahsulotlari turlari XX asrning 50–60-yillarida Ye.Ye.Nerazik va N.N.Vakturskayalar tomonidan to'laroq o'rganilgan¹⁶.

Kulolchilikda, asosan, ikki xil yo'nalishda tayyorlangan sopol buyumlar shakllandi. Ya'ni, birinchidan, mahsulotlar sirlangan va sirlanmagan buyum turlariga bo'lindi. Ikkinchidan esa sopol buyumlar o'z vazifasiga ko'ra turlarga bo'lindi.

Sirlanmagan idishlarni tayyorlash IX–XV asrlarda o'z taraqqiyotining eng yuqori darajasiga ko'tarildi. Kulolchilik mahsulotlari, asosan, kulrang loydan ishlanib, yuza qismi qora rangda angoblanib, usti maxsus kulolchilik asboblari silliqanib, yaltiroq sayqal berila boshlanadi. Bu kabi sayqallash uslubini Xorazm hududidagi qator yodgorliklardan qazib olingan topilmalar bilan qiyosiy solishtirish ularning texnologik ishlanishi jihatidan kushonlar davri sayqallash va naqshlash an'analari o'xshashligini ko'rsatadi¹⁷.

IX–XV asrlardagi Xorazm kulollari tayyorlagan mahsulotlarning ikkinchi turkumini sirlangan buyumlar tashkil qiladi. Bu davrda voha kulollari o'z mahsulotlarini sariq, ko'k, yashil (feruza), qo'rg'oshindan tayyorlangan rangsiz qorishma (glazur), kobalt turidagi sirlar bilan sirlaganlar.

IX–XV asrlarda sirlangan soppollarga rangdor bo'yoqlar yordamida, chizma-bosma usulda bir necha o'nlab naqsh-bezaklar berilgan. Odatda mahalliy soppollarning shakl va naqshlari qimmatbaho mahsulotlarning shakl va naqshlariga

¹⁶ Неразик Е.Е. Керамика Хорезма афригидского периода // ТХАЭЭ. – М.: АН СССР, 1959. Т. IV. – С. 221-260; Вактурская Н.Н. Хронологическая классификация средневековой керамики Хорезма (IX-XVII вв.)... – С. 261-342.

¹⁷ Воробьева М.Г. Керамика Хорезма античного периода... – С. 155, 165.

taqlidga o'xshab ketadi. Bu Xorazm kulolchilik maktabi vakillari ishlab chiqarishning murakkab yo'llarini izlaganligini ko'rsatadi. O'rta asrlar davri voha kulolchiligida keng tarqalgan naqshlarni o'rganish orqali shunday xulosaga kelish mumkin.

IX–XV asrlarga kelib, oldingi davrlar sirlangan idishlarida keng tarqalgan qushlar tasviri o'rniga hayvonlar (quyon, ho'kiz, tovus, o'rdak, baliq) tasviri tushirilgan idishlar ancha ko'payganligini kuzatish mumkin¹⁸. Bu davrga kelib, o'simlik (gul, barg) va geometrik (chambarak, xalqa, parallel chiziqlar, romb) naqshlari ancha reallashadi. Epigrafik naqshlar bo'rtma (relief) shaklida bitila boshlaydi.

XIII–XIV asrlar voha yodgorliklarida uchraydigan naqsh turlariga xos xususiyatlardan biri – bu sirlangan buyum (asosan, kosa va g'ulcha) ichida “o'tirgan” yoki “parvozdagi” o'rdak, “tovus ko'zi” tasvirlari bo'lib, ularning yuzaga kelishini A.Yu.Yakubovskiy va N.N.Vakturskayalar Xorazm an'analari bilan bog'laydilar¹⁹.

Ikkinchi bobning uchinchi bo'limi **“Me'morchilik bilan bog'liq amaliy san'at turlari”**ga bag'ishlangan. Islom dini O'rta Osiyo shaharlarining ijtimoiy-iqtisodiy infratuzilmasi, shaharsozlik tamoyillari va umumme'moriy qiyofasini tubdan o'zgartirdi. Bu savdo va hunarmandchilik shaharlarning paydo bo'lishi va ularning yangi plastik manzarasi, shaharsozlik va me'morchilik ustuvorliklarining yoppasiga o'zgarish davri deya e'tirof etiladi. Islomgacha bo'lgan shaharning oddiy ichki funksional tuzilishi (zamindorlarning ko'shk va qal'a arxitekturasi) sezilarli darajada murakkablashgan. Urganch, Termiz, Samarqand, Buxoro shaharlari ma'muriy, saroy, diniy, savdo, hunarmandchilik, istehkom, muhandislik va boshqa inshootlarni o'z ichiga olgan yirik ko'p maqsadli tuzilmaga aylanadi.

Islom sivilizatsiyasi yangi diniy me'morchilikning asosiy turlari — masjid, madrasa va maqbaralarni ham vujudga keltirdi. Shaharsozlik, savdo va hunarmandchilikning jadal rivojlanishi natijasi o'laroq diniy me'morchilikdan tashqari karvonsaroylar, hammomlar, yopiq savdo bozorlari — tim, chorsu kabi inshootlar va boshqalar yangi diniy binolar qatorida bunyod etiladi. Pishiq g'ishtning keng qo'llanila boshlanishi bilanoq me'morlarning murakkab konstruktiv elementlarni, katta me'moriy hajmlarni yaratish imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytiradi va shu bilan birga binolarning tashqi va ichki qismlarini bezash uchun turli xil qurilish uslublari va badiiy bezak usullarining paydo bo'lishiga olib keladi.

Mo'g'ullargacha bo'lgan davr me'morchiligida shaharsozlikning faol rivojlanishi natijasida diniy, ma'muriy va ijtimoiy binolar qurishning asosiy tarkibiy, texnik va badiiy tamoyillari ishlab chiqildi. Mahalliy me'morlar murakkab inshootlarni, xususan, gumbaz va peshtoqlarni, toq qoplamalar yaratishni o'rgandilar, shuningdek, inshootlarning badiiy ifodali qiyofasini yaratishda pishiq g'ishtlarning to'qimasidan ustalik bilan foydalandilar.

¹⁸ Толстов С.П. По следам древнехорезмийской цивилизации... Рис. 91; Рапопорт Ю.А. раскопки городища Шах-Санем в 1952 г. – Тр. ХАЭЭ. Т. II. Рис 14; Кыдырниязов М.Ш. Культурные связи золотоордынских городов Хорезма // Средневековая городская культура Казахстана и Средней Азии. – Алма-Ата: Наука, 1983. – С. 104.

¹⁹ Якубовский А.Ю. К вопросу ремесленной промышленности Сарая-Берке... – С. 33-37; Вактурская Н.Н. Хронологическая классификация средневековой керамики Хорезма... – С. 318. Рис. 29, 1,5.

XII asrga kelib, Xorazm kulolchiligi o'z taraqqiyotining eng yuqori nuqtasiga yetadi va koshinpazlik shakllanadi. Koshinsozlik asosida uy-ro'zg'or idishlaridan tortib, me'moriy bezaklar va taqinchoqlarga qadar buyumlar tayyorlangan. Bu esa, o'z-o'zidan, yangi mahsulot turlarining ko'payishiga olib kelgan. Mahalliy kulollar sirli sopollar ishlab chiqarishning yangi texnologiyasini o'zlashtirganlar. Sirli sopol ishlab chiqarish uchun qo'llaniladigan moddalarning kimyoviy tarkibini o'zgartirish orqali turli yangi ranglar olingan. Bu ranglar, asosan, koshin mahsulotlarida ko'proq qo'llanilgan. Bunga, albatta, O'rta Sharqdagi kulolchilik markazlari (Ray, Koshon, Sultonobod, Nishopur), Samarqand va Marv singari sivilizatsiya o'choqlari bilan olib borilgan madaniy aloqalar tufayli erishilgan. Rivojlangan o'rta asrlarda kulolchilik sohasida Xorazm koshinpaz hunarmandlarining o'rni katta bo'lgan. Amir Temur tomonidan Xorazm hunarmandlari Samarqand va Shahrisabzga olib kelinib, Oq Saroy, Dorussaodat, Bibixonim, Tuman og'a, Muhammad Sulton inshootlarini yaratishda ishtirok etganligi kulolchilikning koshinkorlik sohasi Xorazmda qay darajada bo'lganligining yana bir yaqqol dalilidir.

Tadqiqotning **uchinchi bobi Xiva xonligi davrida amaliy-bezak san'ati (XVI-XX asr boshlari)** deb nomlanib, xonlik davrida ijtimoiy-siyosiy hayotning amaliy san'atga ta'siri, Xorazm amaliy san'atining rivojlangan sohalari – kulolchilik, kandakorlik, zargarlik, chitgarlik, hamda koshinpazlik, yog'och o'ymakorligi, ganchkorlik, marmar o'ymakorligi turlarini rivoji, badiiy tahliliga bag'ishlangan.

Uchinchi bobning birinchi bo'limi **“Xonlik davrida ijtimoiy-siyosiy hayotning amaliy san'atga ta'siri”**ga bag'ishlangan. Xorazm 1511 yilda Eron safaviylaridan mustaqillikka erishgan. Ubaydullaxon (1537–1538) va Abdullaxon II (1593–1595) davrida Xorazm qisqa muddat Shayboniylarga bo'ysundirilgan. Xorazmda shayboniylar sulolasi 1770-yilgacha hukmronlik qilgan. O'sha paytda Vazir shahri poytaxt bo'lgan. Elbarsxon hokimiyatni egallagach, poytaxtni Urganch shahriga ko'chirgan. Eronliklar 1740-yil yana yurish boshlab, Buxoroni ham, Xivani ham istilo qilgan. Bu istilo Xorazmga misli ko'rilmagan zarar keltirgan. XVI-XVIII asrlar xonlik tarixida ichki kurashlar, tashqi bosqinlar davri bo'lib, iqtisodiy turg'unlik, hunarmandchilik va me'morchilikning ham tushkunlikka tushishiga olib keldi. Xiva xonligidagi, ijtimoiy-siyosiy jarayon, tabiiyki, barcha sohaga, jumladan, badiiy hunarmandchilikka ham o'z ta'sirini o'tkazgan. Chunki, qaysi mamlakatda siyosiy barqarorlik hukm sursa, o'sha joyda iqtisodiy rivojlanishga erishilib, xalqning ijtimoiy ahvolini yaxshilanadi. Bunday mamlakatda savdo-sotiq rivojlanadi, madaniyat, ilm-fan va san'at ravnaq topadi, gullab-yashnaydi. Amaliy san'atning holati ham ushbu jarayonlar bilan bevosita bog'liqdir. Amaliy san'atdagi yuksalish va tanazzulni Xiva xonligi tarixi misolida yaqqol ko'rish mumkin. Afsuski, muzeylarda bu davrga oid buyumlar juda kam saqlangan. Xiva xonligida san'atga hamisha hukmdorlar, ularning yaqin kishilari va amaldorlar homiylik qilishgan. Amaliy san'at buyumlarini ro'zg'orda ishlatish va sovg'a sifatida berish uchun buyurtma qilishgan. Mamlakatdagi siyosiy inqirozlar paytida amaliy san'at buyumlari soddalashib qoladi, tasviriy san'at vaqtincha tanazzulga uchraydi. Lekin har qanday vaziyatda ham hunarmandchilik yashayveradi. Uning san'at darajasiga

ko'tarilishi yoki oddiy hunar bo'lib qolishi, shu davrdagi ijtimoiy-siyosiy vaziyatga bevosita bog'liqdir.

1804-yilda Xiva xonligi taxtini rasman qo'ng'irotlar egallagan. Muhammad Rahimxon I davri (1806–1825)da Xiva xonligi siyosiy jihatdan to'la birlashtirilib, turkmanlar va qoraqalpoqlar unga bo'ysundirilgan. Katta juz qozoqlarining yeri egallanib, Buxoro hukmdorlari qo'shini hujumiga chek qo'yilgan. Natijada xonlikda ijtimoiy-madaniy hayot ravnaq topgan. Olloqulixon (1825–1842) va Muhammad Aminxon (1846–1855) davrida Xiva xonligida madaniyat, jumladan, amaliy san'at yuksak cho'qqiga ko'tarilgan. XVIII asr ikkinchi yarmi – XIX asr 70-yillarigacha "Ichan qal'a" hududida juda ko'p binolar, me'moriy inshootlar bunyod etilib, ularning aksariyati koshinlar, yog'och, marmar o'ymakorligi bilan bezatilgan.

Arxiv hujjatlarida Xiva shahrida XIX asr boshida 6 nafar kigizfurush ustaxonasi, 17 nafar ipak to'quvchi, 26 nafar xarrot, 38 nafar miskar, 16 nafar choponfurush, 18 nafar ko'nchi, 60 nafar bo'yoqchi, 40 nafar etikdo'z, 42 nafar zargar va boshqa kasb egalari bo'lgani qayd etilgan²⁰.

XIX asr 90-yillari va XX asr boshida rus kapitalizmining xonlikka qiziqishi kuchaygan va sanoat ishlab chiqarish yo'lga qo'yila boshlangan. Bu, birinchi navbatda, to'qimachilikda yuz berdi. Ruslar paxta yetishtirishga, xom ashyoni Rossiyaga olib ketib, tayyor mahsulotni xonlikka sotishga jiddiy e'tibor qaratganlar. Rossiya imperiyasidan tayyor gazlamalar keltirila boshlanishi bilan Xorazmda hunarmandchilikning qator sohalari (to'qimachilik, chitgarlik, badiiy ko'nchilik) inqirozga uchragan. Hunarmandlar ishsiz qolib, mardikorlarga aylangan. Natijada, hunarmandchilikda uzoq zamonlar mobaynida shakllangan an'analar unutila boshlangan. Bu jarayon sho'ro davrida yanada kuchaygan. Rossiya imperiyasi bosqini salbiy ta'sir o'tkazgan sohalardan yana biri metall bilan ishlash bo'lib, miskarlik, kandakorlik, qurol-yarog' ishlab chiqarish pasayib ketgan. Chunki bu davrda Rossiya imperiyasi zavodlarida ishlab chiqarilgan tayyor mahsulotlar keltirila boshlangan. Rus savdogarlari bundan katta foyda olganlar. XX asr boshida kandakorda naqshlar soddalashishini ham shu bilan izohlash mumkin. Zargarlikda tilla buyumlar kam ishlangan, asosan, kumush va jezdan foydalanilgan. Koshinpazlik, ganchkorlik, marmar o'ymakorligi ham XIX asr birinchi yarmidagidek rivojlanmagan. Bu davrda amalga oshirilgan qurilishlar son jihatdan ko'p bo'lsa-da, ularning badiiy bezalishi birmuncha soddaroq.

Uchinchi bobning ikkinchi bo'limi **“Xorazm amaliy san'atining rivojlangan sohalari: kulolchilik, kandakorlik, zargarlik, chitgarlik”** deb nomlangan. Xorazmda ikkita mashhur kulolchilik markazi shakllangan: Yangiariq tumanida – Kattabog' va Xonqa tumanida – Madir. Bu kulolchilik markazlarining har biri o'ziga xos jihatlarga ega bo'lib, ayni xususiyat buyumlarning yasalishi, shakli, rangidagi farqlarda aniq ko'zga tashlanadi. Madirning bodiyalari chuqurroq, Kattabog'niki sayozroq, chekkalari tik bo'ladi. Madir buyumlarining rangi to'q moviy, Kattabog'niki esa rangi ochiqroq. Kattabog' kulolchilik maktabida ramziy naqshlar keng qo'llanilsa, Madirda esa ular ishlatilmaydi²¹.

²⁰ O'zMA I–125 jamg'arma, 2-ro'yxat. 32-yig'ma jild; 79-yig'ma jild, 14-varaq.

²¹ Kulol Bahodir Sultonov bilan suhbatdan (Yangiariq t., Kattabog' qishlog'i. 1962-y.t.)

Xorazm kulolchiligida dulov, bodiya, kovuli, chanoq (kosa), tovoq, kosa (piyola), lavop kosa, shokosa, qopshirma, toshchiroq, davat, duvak, tagarik, gupi (kuv), xum, xumcha, ko'za, ibrik, shakasha, qubba, cho'girma qolipi, tandir va har xil o'yinchoqlar, qurilish materiallari tayyorlanadi.

Xorazm kulolchiligi buyumlarining yasash usuli, shakli, hajmi, bezalishi, sifati kabi jihatlari bilan boshqa hududlardan farq qiladi. Xorazm kulolchiligida ham arablar bosqinidan keyin islom dini ta'sirida o'simliksimon naqshlar asosiy o'rin tutgan. Shuningdek, arab yozuvining turli shakllaridan ham mahorat bilan foydalanilgan. Hozirgi paytda kulolchilik, ganchkorlikda girihlarning keng qo'llanilishi, muayyan darajada, XX asrda yodgorliklarni, jumladan, Toshhovlini ta'mirlash bilan bog'liqdir. Shu tariqa me'morchilikda keng qo'llanib kelingan girihlar maishiy buyumlar bezaklariga ham ko'chgan va kulolchilikda girih naqshlar ko'p ishlatila boshlangan²². Bodiylarning "dulov", "bodiya" va "kovuli" turlari bo'lib, ular sirlanib, moviy, oq, yashil va jigarrangdagi naqshlar bilan bezatilgan.

Misga ishlov berishning bir qancha usuli bo'lsa-da, amalda, asosan, qolipi, kandakori va simkori usullari, badiiy bezak turlaridan "mehrob", "sitara", "gardish", "ishkalak", "turunj", "chashmi bulbul", "qo'chqorak", "pushti baliq" kabilar ko'proq qo'llangan. Xiva kandakorlari chizma usulidan faqat pardozlashda foydalanishadi. Ular shabaka usulini juda kam ishlatishadi. Qum'on faqat Xorazm hududga xos bo'lib, boshqa viloyatlarda uchramaydi. Xivada uy-ro'zg'or buyumi sifatida ishlatiladigan qum'onlar yassi, bo'g'zi uzun hamda ingichka qilib yasalgan. Tuncha – Xorazmda choy qaynatish uchun ishlatiladigan buyum. Tung – cuv idishi²³. Xivada suv solib qo'yildigan idishlar tung deyiladi. Ular ko'pincha dumaloq bo'lib, dastasi va ba'zida qopqog'i ham bo'ladi. Tagiga pastakkina chambarak qalaylangan bo'ladi²⁴. Selobcha Xorazm kandakorligida keng tarqalgan idish turlaridan biridir. Selobcha qo'l yuvishda ishlatiladigan tog'orasimon buyum bo'lib, uning tagligidagi suvdoni teshikli qopqoq bilan yopib qo'yilgan.

Zargarlik san'ati Xorazmda san'at darajasiga chiqqan va o'zining betakrorligi bilan ajralib turuvchi sohadir. Xotin-qizlarning bosh, peshona, soch, burun, quloq, chakka, bo'yin, ko'krak, bel, bilak, barmoq taqinchoqlari yaxlit majmuani tashkil etadi. Boshga – tojduzi, jig'a, bodomoy, davoduzi, taxyaduzi, oqyoy (o'qyoy) duzi; peshonaga – manglay duzi, qoshinna, qanot osma, tangaduzi, manot duzi, osmaduzi (faqat Xorazmda mavjud); chakkaga – yarimtirnoq, butuntirnoq; sochga – sochpopuk, osma bezak, gajak, jamalik; burunga – aravak; quloqqa – isirg'a, bo'yinga – tumor, munchoq; ko'krakka – sinsila, tumor, shavkala, sadabduzi, marjonduzi, ko'krakduzi; belga – kamarbog'i, kalitbog'i, tilla belbog'; bilakka – bilaguzuk; barmoqqa – uzuk taqilgan.

"Chitgarlikda asosan paxtadan tayyorlangan oq bo'z keng ishlatilgan. Chunki bo'z mayin mato bo'lgani bois, bo'yoqni o'ziga yaxshi singdirgan. Chitgarlikda qoliplar muhim ahamiyat kasb etadi. Har bir chitgarining o'nlab, hatto, yuzlab qolipi bo'lgan va bu qolip avloddan-avlodga meros bo'lib o'tgan. Matolarni bezatishda

²² Алиева С. Художественная поливная керамика Узбекистана IX – начала XXI в. – Ташкент, 2009. – С. 86-87.

²³ XDMQ, KP 36, bal. 45 sm., haj. 95 sm.

²⁴ Sergeev B. O'zbekistonda miskarlik.... – B.15.

naqshning har bir rangi uchun alohida qolip qo‘llangan”²⁵. Xorazmda qoliplar, asosan, qayrag‘och va olmurut (nok) daraxtlaridan tayyorlangan. Xorazm chitgarligida “pechaki”, “marg‘ula”, “olmagul”, “ilonizi”, “qo‘chqor shoxi,” “qalampir” kabi islamiy naqsh turlari keng qo‘llanilgan.

“Amaliy san‘at turlari – me‘moriy bezak sifatida (koshinpazlik, yog‘och o‘ymakorligi, ganchkorlik, marmar o‘ymakorligi)” deb nomlangan bo‘limda XVI-XX asr boshlarida bunyod etilgan me‘moriy inshootlarning bezaklari tadqiq qilingan. Amaliy san‘atning o‘ziga xos jihatlaridan biri uning me‘morchilikda bezak sifatida muhim detal bo‘lib qo‘llanishidir. Amaliy san‘at qo‘llanadigan me‘moriy qism va buyumlar quyidagilardan iborat: devor koshin bilan qoplangan, binoning ichki qismini bezashda ganchkorlikdan keng foydalanilgan. Devorga marmar taxtacha o‘rnatilgan. Peshtoq koshinkori qilingan. Koshin qo‘llanmagan peshtoqlarda ham g‘ishtni turli shaklda terish orqali o‘ziga xos bezaklar hosil qilingan. Masjid va maqbaralar gumbaz shaklida yopilgan. Gumbazning ichki va tashqi qismlari koshin bilan qoplangan. Tekis yopilgan tomda patik (shift) rangli bo‘yoqlar bilan naqshlangan. Patikda ganchkorlik ham qo‘llanilgan. Mehrob masjiddagi qibla tomondagi shakl bo‘lib, koshinkori yoki ganchkori qilib ishlangan. Guldasta (madrasadagi kichik minora)ning yuqori qismi ham koshin bilan qoplangan. Saroy, masjid, madrasa, maqbara va boshqa binolarda yorug‘lik tushishi uchun darchalar qoldirilib, ular panjara bilan to‘silgan. Panjara, asosan, ganchdan, ba‘zan mis va yog‘ochdan ishlangan. O‘ra (ustun), o‘ratosh (poyustun), darvoza, qopi (eshik), qosh – yog‘och o‘ymakori qilib ishlangan. Bunday me‘moriy qismlarni Xorazmda har bir binoda uchratish mumkin. Saroylardagi o‘ratoshlar marmardan naqshinkor qilib yasalgan. Qubba bezak unsuri bo‘lib, maqbara va minoraning gumbaziga loy yoki metallardan tayyorlanib, o‘rnatilgan. Loydan tayyorlangan qubba yashil rangda sirlangan, metaldan tayyorlangan qubba sariq rangli bo‘ladi. Qubbalar tepasiga islom dinining ramzi yarim oy shakli o‘rnatilgan.

Koshinlar yupqa, pishiq g‘ishtcha (plitka)lardir. Uning chiroyi sirida, ya‘ni yuziga beriladigan (o‘tda pishirilib) rangda. Xorazm koshinlari, asosan, oq, ko‘k, moviy va yashil rangda ishlangan. Koshinlarga turli islamiy va girih naqshlar chizilib, arab yozuvida “Qur‘on” oyatlari, hadislar, ibratli so‘zlar bitilgan.

Yog‘och o‘ymakorligi me‘morchilik va uy-ro‘zg‘or buyumlarida keng qo‘llangan. Xorazm yog‘och o‘ymakorligi buyumlarini vazifasiga ko‘ra, uch guruhga ajratish mumkin: 1) qurilish jihozlari – o‘ra, o‘ratosh, qopi, darvoza, patik (shift), qosh va b.; 2) uy-ro‘zg‘or buyumlari – orja (sandiqlik), ustar (stol), kursi (stul), lavh, kubda (chinniqop), hassa va b.; 3) asbob-anjomlar – egar, xomut, qamchi, chitgar qolip.

X–XIV asrlarda ishlangan Juma masjidning 25 ta ustuni Xorazm hududida yog‘och o‘ymakorligining qadimiy namunalaridir. Xiva xonligi davrida yog‘och o‘ymakorlari faqat buyurtma asosida ishlashgan. Yog‘och materiallari tabiiy guli, rangi, tovlanishi va hidiga qarab aniqlanadi. Xiva yog‘och o‘ymakorligida, asosan,

²⁵ Nosirova Z. O‘zbekiston chitgarligi: ustalar amaliyoti // Ландшафт современного искусства Узбекистана. Tashkent, 2012. – B.131.

gujum (qayrag'ochlar oilasiga mansub daraxt, faqat Xorazm vohasida o'sadi), qoramon, tut, ko'k terak, o'rik, olmurut kabi mahalliy daraxtlarni ishlatilgan.

Xorazm yog'och o'ymakorligi maktabi o'yma naqshining maydaligi, yuzaligi, zaminning kamligi, naqshlarning zichligi hamda badiiy tuzilishi jihatidan jozibadorligi, harakatchanligi bilan farq qiladi. Har bir o'yma naqsh zamirida qandaydir ramziy ma'no yashiringan bo'ladi. "Rapida", "turunj", "panjara", "g'uncha", "murchgul", "madohil", "qo'chqor shoxi", "tojigul" Xorazm yog'och o'ymakorligida keng qo'llangan islamiy naqsh turlaridir. Yog'och o'ymakorligida ustoz-shogird an'analari xalq amaliy san'atining boshqa yo'nalishlariga qaraganda kuchli rivojlangan.

XVIII asr ikkinchi yarmi – XIX asr birinchi yarmida ganch o'ymakorligi ancha taraqqiy etgib, uning uslublari, texnikasi murakkablashgan. Bu davr ganchkorligining betakror namunalari Ko'hna Ark, Toshhovli, Oqmasjid, Saidboy masjidlari va Olloqulixon madrasasida qo'llanilgan. Xiva ganch o'ymakorligi borasida dunyoning istalgan bir ko'hna shahari va ustalari bilan bellasha oladi²⁶.

Ganch o'ymakorligida ham xuddi yog'och o'ymakorligi, koshinpazlikdai singrai islamiy va girih naqshlar ishlatiladi. Islamiy naqshlardan: yaproq, daraxt, buta, gul, g'uncha va boshqalar, girihlardan: aylana, hoshiya, taqsim, zanjira ko'p qo'llanadi va ular o'zaro uyg'unlashib, takrorlanib go'zal shakl hosil qiladi. "Xivaning dinamik o'yma naqshlari o'ziga xos spiralsimonligi bilan farqlanadi"²⁷. Xorazm ganchkorligida "madohil", "qalampir", "turunj" shaklidagi naqsh kompozitsiyalari keng tarqalgan. Xorazm ganch o'ymakorligidagi naqsh kompozitsiyasi so'zanani eslatadi.

Xorazm marmar o'ymakorligida islamiy naqshlardan "bitav", "madohil", "qalampir", "turunj"; girihlardan "uchburchak", "to'rtburchak", olti va sakkiz qirrali yulduz tasviri ko'p ishlatilgan. Xorazmda ko'pincha yulduz hosil qiluvchi girihlar ishlatilib, orasiga spiralsimon naqsh tushiriladi. Yozuvlar arab alifbosida marmar lavhlarda "nastaliq", qabrtoshlarda va o'ratoshlarda "ta'liq" xatlarida fors va turkiy tillarida yozilgan.

Tadqiqotning to'rtinchi bobi **"XX-XXI asr boshida Xorazm amaliy-bezak san'ati"** deb nomlanib, uchta bo'limdan iborat. Mazkur bobda 1920-yildan hozirgi kungacha - Xorazm amaliy-bezak san'atining rivojlanish masalalari va o'ziga xos xususiyatlari yoritiladi.

To'rtinchi bobning birinchi bo'limi "1920–1990-yillarda Xorazm amaliy-bezak san'ati"ning holatini tadqiq qilishga bag'ishlangan. 1920-yillarda O'zbekistonda hunarmandchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish jarayoni yangi tashkiliy shakllarga ega bo'ldi — ko'plab hunarmandlar artellarda birlashadilar, badiiy va sanoat maktablari va o'quv-ishlab chiqarish kombinatlar yaratildi. Hunarmandlardan barcha ishlab chiqarish vositalari musodara qilinib, artellar va uyushmalarning jamoa mulkiga aylantirildi, ular jalb qilingan hunarmandlarga shu vaqt ichida ishlab chiqargan mahsulotlari uchun belgilangan oylik maosh to'lashdi. Natijada amaliy san'atning iqtisodiy tarkibiy qismiga putur yetkazildi va shunga

²⁶ Abdurasulov A. Xiva (tarixiy-etnografik ocherklar)... – B.76.

²⁷ Bulatov S. O'zbek xalq amaliy-bezak san'ati... – B. 16.

mos ravishda o'zlarining tabiiy xo'jalik mavqe'ini yo'qotgan ustalarning ijtimoiy mavqei pasayib ketdi.

Ijtimoiy o'zgarishlar, shuningdek, an'anaviy hunarmandchilikning bir qator tarmoqlari va turlarining yo'q bo'lib ketishiga sabab bo'ldi. Ular orasida — ommaviy uy-joylarning yangi turlari va arzon, fabrikalarda ishlab chiqarilgan yangi uy-ro'zg'or buyumlarining paydo bo'lishi, bir qator yarim ko'chmanchi qabilalarning muqim hayotga o'tishi, eski feodal turmush tarzidan yangi sovet turmush tarziga o'tishga da'vatlar edi. Bularning barchasi O'zbekiston aholisining turmush sharoiti va ehtiyojlarining o'zgarishiga olib keldi va shunga mos ravishda maishiy foydalanishdan chiqib ketgan ko'plab an'anaviy mahsulot turlari ishlab chiqarilishi to'xtatdi.

1920-yillardan 1980-yillarga qadar aksariyat hunarmandlar an'anaviy bezak kompozitsiyalaridan foydalanishni davom ettirdilar, ammo ijtimoiy talabning yetishmasligi tufayli ko'plab yog'och naqqoshlik mahsulotlarni ishlab chiqarilishi to'xtatdi. Bu davrda Xorazm amaliy-bezak san'atini munosib davom ettirgan Ota Polvonov, Safo Bog'ibekov, Ro'zmat Masharipov, Rayimbardi Matchonov, Abdulla Boltayev kabi ustalar faoliyat yuritishgan.

To'rtinchi bobning ikkinchi bo'limida **“Mustaqillik yillarida amaliy san'atning qayta tiklanishi va rivojlantirish muammolari”** o'rganilgan. Xorazm amaliy-bezak san'ati mustaqillik yillarida milliy qadriyatlarni tiklagan holda tez rivojlanmoqda. Mustaqilligimiz sharofati bilan yo'qolib borayotgan xalq amaliy san'atining barcha turlarini qaytadan tiklab, uni rivojlantirish maqsadida bir qator huquqiy hujjatlar qabul qilindi.

1999-yil qurilib ishga tushirilgan, shahrimiz ko'rkiga ko'rk qo'shib turgan Al-Xorazmiy va Al-Beruniy yodgorliklarida sho'rolar davrida yo'qolib ketgan koshinkorlik san'ati qaytadan me'morchilik san'atida foydalanila boshlandi. Unutilib ketgan bu san'at sirlarini tiklash mashhur kulol, K.Behzod nomidagi Davlat mukofoti sovrindori Rayimberdi Matchanov maslahati asosida o'g'illari Matchon, Odilbek Matchanovlar, kulol Amin Mirzaev, me'mor Davron Matyusupov, koshin teruvchi Rajabboy Matyusupov, Hamdam Iskandarovlar, kulol O'zbekiston Respublikasi Xalq ustasi Sulton Otajonov, me'mor Davlatnazir Muhammedov va boshqalar samarali ijodiy mehnatlari tufayli amalga oshirildi.

O'zbekiston Respublikasi xalq ustasi Hayitmat Bog'ibekov o'z ijodiy jamoasi Nodir, Oybek va Anvar Abdusharipovlar, Eshniyoz va Anvar Bog'ibekovlar, Anvar Egamovlar bilan Xiva yog'och o'ymakorligi san'atini qaytadan tiklab zamonaviy me'morchilikda foydalana boshladilar.

Hozirgi kunda Xorazm amaliy-bezak san'atining kulolchilik, koshinpazlik, yog'och o'ymakorligi, gilamdo'zlik kabi turlari rivojlangan.

“Xorazm amaliy-bezak san'atining o'ziga xos xususiyatlari” to'rtinchi bobning uchinchi bo'limida yoritilgan. Xorazm amaliy san'ati o'zining jozibasi, takrorlanmasligi, naqshlarining uyg'unligi, koloriti bilan boshqa hududlardan ajralib turadi. Xorazm naqshlari butun yuzani geometrik naqshlar bilan to'ldirib kompozitsiyada asosan novda spiralsimon aylanib-aylanib murakkab naqshlar hosil qiladi. Islimi naqsh tuzilishida novda, marg'ula, barg, no'xatgul, oddiy oygul keng o'rin egallaydi. Bu islimi naqshlar boshqalardan dinamikaviyligi bilan farq qiladi.

Xorazmda ko‘pincha yulduz hosil qiluvchi girehlar ishlatilib, orasiga spiralsimon islami naqsh tushiriladi. Xorazm naqshlari madohil (arabcha – ostona, kirish eshigi) naqshlar asosida tuziladi.

Xiva yog‘och o‘ymakorligi naqshlarining maydaligi, yuzaligi, zaminining kamligi, naqshlarining zichligi hamda badiiy tuzilishining o‘ynoqiligi bilan boshqa hududlardan farq qiladi. Xorazmlik o‘ymakorlar yog‘och tabiiy rangini saqlab qolganlar va bu boshqa hududlarda deyarli uchramaydi. Tabiiy rangni saqlash uchun yuzasiga va zaminiga paxta, zig‘ir (oq yog‘) yog‘i berganlar. Xiva naqshlarining go‘zalligi naqshlarning turli chuqurlikda o‘yish orqali katta aniqlikka va uyg‘unlikka erishishidir. Xivalik ustalar o‘yma yuzasini silliqlash, bo‘yoq surtish usulini qo‘llamaganlar.

Kandakor ustalar asosan islami naqshlarni ko‘p qo‘llaydilar. Aylanma islami ommaviy naqsh hisoblandi. Xorazmlik kandakorlar islami, murakkab islami, madohili, murakkab aylanma islami kabi naqshlar bilan buyumlarni bezaydilar. Geometrik naqshlardan cheton yoki katakni keng qo‘llaydilar.

XULOSA

IX-XXI asr boshlari Xorazm amaliy-bezak san‘ati: rivojlanishining asosiy bosqichlari va badiiy xususiyatlari mavzusi tadqiq asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Xorazm vohasi arxeologik jihatdan keng qamrovli tadqiqotlar olib borilgan mintaqalardan biri hisoblanib, izlanishlar jarayonida to‘plangan ma’lumotlar o‘rta asrlar davri tarixiy taraqqiyot bosqichlarida yaxlit hunarmandchilik tarixini, jumladan, uning markazlarini aniqlashga asos bo‘ladi. Har bir davr uchun xos bo‘lgan hunarmandchilik ishlab chiqarish markazlarini ajratib ko‘rsatish mumkin.
2. Yozma manbalar doirasida Xorazmning hunarmandchilik tarixiga oid maxsus yozilgan asarlar mavjud emas. Mahalliy shaharlar iqtisodiyoti va savdo-sotiq tizimiga tegishli tarixiy-geografik asarlarda hunarmandchilikka oid ayrim ma’lumotlar qisqacha lavhalar shaklida o‘z aksini topgan. Bu holat tadqiqotchilar uchun ma’lum qiyinchiliklar tug‘diradi. Tadqiqotchilar oldida arxeologik manbalarni sinchiklab o‘rganish va ularni saralab tarixga yo‘naltirish kabi mushkul vazifa turadi. Mavzu yuzasidan olib borilgan etnografik tadqiqotlar Xorazm aholisining kelib chiqishi, yashash tarzi, urf-odatlarini, shuningdek hunarmandchilik bilan bog‘liq masalalarga qaratilgan. Bu ma’lumotlar mavzuni ochib berishda yordamchi vosita sifatida xizmat qiladi.
3. Mavzu san‘atshunoslik jihatidan to‘la tadqiq qilinmagan. Aksariyat tadqiqotlar XIX-XX asrlar amaliy san‘atiga qaratilgan. Keyingi yillarda akademik Akbar Hakimovning islom san‘ati nuqtai nazaridan qilingan tadqiqotlari mavzuni yoritishda muhim ahamiyat kasb etadi.
4. Mahalliy aholining alohida talabi oshganligi va eksport mahsuloti sifatida mo‘rtligi sababli, kulolchilik buyumlari, metall buyumlari (kandakorlik)dan ko‘ra, ko‘proq mahalliy san‘at an‘analarini aks ettirgan. Bu yerda yuqori sifatli badiiy kulolchilik mahsulotlari ham xalqaro savdo mahsuloti bo‘lganligini qo‘shimcha qilish kerak. Biroq, umuman olganda, kulolchilik, kandakorlikdan

- ko'ra, kamroq darajada, IX–XIII asrlardagi umuminsoniy, umumiy xalifalik, kengroq — umumiy musulmon san'ati tendensiyalarini aks ettirgan.
5. XI–XII asrlarda bronza buyumlarni bezashda, ayniqsa ko'p ishlatadigan qanotli sfinkslar va tuyoqli hayvonlar, sher grifonlari va odam boshli qushlar tasvirlari o'zining sobiq afsonaviy va epik ahamiyatini yo'qotib, folklor va ertak personajlari qatoriga o'tadi. Yangi tus olgan dunyoviy syujetlar ham yo'qolmaydi. Taxtnishin manzaralari, ovdagi kahramonlik, a'yonlarning bazm va o'yin-kulgilari naqshlangan kichik medalonlar, mahsulot yuzasida ritmik tarzda joylashib, turli uy-ro'zg'or buyumlarining naqshli bezaklariga aylanadi.
 6. XI–XIII asr boshlari bronza buyumlaridagi jonzotlar dunyosini "hayvonlarni quvlash" sahnalarda quyon, bug'u-lan, it, tulki, gepardlar, "burj belgilari" kompozitsiyasidagi tog' takalari va buzoqlar, shuningdek hech qanday syujetsiz medalonlardagi qushlar va baliqlar tasvirlari aks ettirilgan; bu o'ymakor naqshlar bilan bezalgan alohida kartushlar yoki dumaloq medalonlar baland ko'zalar va sharsimon jomlar tanasini uzuq-uzuq chamberak bo'lib o'rab oladi. Garchi hayvonlarning talqini ba'zan asl nusxaga shunchalik yaqin bajarilgan-ki, hatto ularning turini aniqlash mumkin bo'lsa-da, shunga qaramay, bu tasvirlar asosan naqsh hosil qiluvchi ayrim vositalar vazifasini bajaradi.
 7. IX–XIII asr boshlarida islom dunyosi badiiy madaniyatining umumiy, umuminsoniy xususiyatlariga qaramay, Xorazm kandakorligining mahalliy xususiyatlari saqlanib qolgan. Mintaqaviy xususiyatlarning tabiati aniq tarixiy sharoitlarga — islom dinining qabul qilingan vaqtiga, mahalliy madaniy an'analarning barqarorligiga, shaharlarning rivojlanish darajasiga va boshqalarga bog'liq edi. Islom dinining O'rta Osiyo ikki daryo oralig'i hududlariga kirib kelishi VII–VIII asrlar oralig'iga to'g'ri keladi, ammo badiiy madaniyatda, xususan, kandakorlikda bu jarayon faqat IX–X asrlarda o'z ifodasini topgan. Bu o'tish davrida islomgacha bo'lgan avvalgi obraz va motivlar yo'qoladi yoki moslashib, yangi badiiy simbioz hosil qiladi. Islomni Movarounnahrning shimoli-sharqiy mintaqalariga kirib borishi keyinchalik sodir bo'ladi, shuning uchun bezaklar mavzusi va uslubiy talqinida umumiy musulmon me'yorlari keyingi bosqichlarda namoyon bo'ladi. Shunga qaramay, XIII asr boshlariga kelib Movarounnahrning shimoli-sharqiy hududlari torevtikasi uslubidagi ornamentalizm ham hukmron badiiy xususiyatga aylanib boradi.
 8. Sirlanmagan idishlarni tayyorlash IX–XV asrlarda o'z taraqqiyotining eng yuqori darajasiga ko'tarildi. Kulolchilik mahsulotlari, asosan, kul rang loydan ishlanib, yuza qismi qora rangda angoblanib, usti maxsus kulolchilik asboblari silliq qilib, yaltiroq sayqal berila boshlanadi. Bu kabi sayqallash uslubini Xorazm hududidagi qator yodgorliklardan qazib olingan topilmalar bilan qiyosiy solishtirish ularning texnologik ishlanishi jihatidan kushonlar davri sayqallash va naqshlash an'anasiga o'xshashligini ko'rsatadi.
 9. IX–XV asrlardagi Xorazm kulollari tayyorlagan mahsulotlarning ikkinchi turkumini sirlangan buyumlar tashkil qiladi. Bu davrda voha kulollari o'z mahsulotlarini sariq, ko'k, yashil (feruza), qo'rg'oshindan tayyorlangan rangsiz qorishma (glazur), kobalt turidagi sirlar bilan sirlaganlar. O'ziga xos madaniyatga ega bo'lgan Eron, Misr, Suriya, Xitoy an'anasiga xos bo'lgan sirli sopollar —

chinni, koshin va qandillar hamda “minoy”, “gran de ri” va “seladon” tipidagi jahon andazasidagi idishlar bu davrda Xorazmda ham keng tarqaladi. Voha aholisining yuqori sifatli mahsulotlarga bo‘lgan talabining ortishi yangi xildagi sopol buyumlarning shakllanishiga olib kelgan. XII asrga kelib, Xorazm kulolchiligi o‘z taraqqiyotining eng yuqori nuqtasiga yetadi va koshinsozlik hunarmandchiligi shakllanadi.

10. XVI–XVIII asr birinchi yarmida Xiva xonligi vujudga kelishi va shakllanishi davrida Xorazmda amaliy san’ati turg‘unlikka uchragan. Chunki amaliy san’at rivojiga bu davrdagi hokimiyat uchun o‘zaro kurashlar, qo‘shni xalqlar va davlatlarning talonchilik yurishlari salbiy ta’sir o‘tkazgan. XVIII asr ikkinchi yarmi va XIX asrning 70-yillarida siyosiy va iqtisodiy barqarorlik hukm surgani bois bu davrda Xorazm amaliy san’ati gullab-yashnagan. Bu davrda Xorazm hukmdorlari mamlakatda to‘la hukmronlik o‘rnatib, o‘zaro nizolarga chek qo‘yishgan. Amaliy san’atning yog‘och, marmar va ganch o‘ymakorligi, kulolchilik, koshinpazlik, zargarlik, chitgarlik, badiiy ko‘nchilik, qurol-aslaha tayyorlash yuksalgan.
11. XIX asr oxiri – XX asr boshida Xorazmda Xiva, Madir, Kattabog‘, Urganch kulolchilik maktablari shakllangan va rivojlangan. Xorazm sirlangan kulolchiligi idish, buyumlarning yasash texnikasi, shakli, rangi va badiiy bezalishiga ko‘ra boshqa hududlar kulolchiligidan birmuncha farq qiladi. Xorazm kulolchiligida *bodiya, chanoq, tovoq, qopshirma, shakasha, gupi (kuv)* kabi buyumlar yasash rivojlangan. Unda eng keng tarqalgan va badiiy bezalishi jihatdan chiroyli buyum bodiyadir. Bodiyaning *dulov, bodiya* va *kovuli* turlari mavjud. Xorazm kulolchiligida boshqa hududlar kulolchiligida uchramaydigan cho‘girma qolipi tayyorlanadi. Xorazm kulolchiligida bezatishda qo‘llanadigan ishqor shu hududda o‘sadigan “cho‘g‘on” va “qora o‘roq” o‘simliklaridan olingan. Kulolchilikda asosan islmiy naqshlar ishlatilgan. Xorazmda kulolchilik ravnaq topishining boisi shundaki, unda ustoz-shogirdlik an’anasi yaxshi yo‘lga qo‘yilgan. Shogirdlar tayyorlash bo‘yicha kulolchilik yog‘och o‘ymakorligidan keyin ikkinchi o‘rinda turadi. Ollakaro kulol, Vays kulol, Polvon Matyoqubov, Rahimbergan Matchonov, Sulton Otajonov Xorazmning mashhur kulollaridir.
12. XVIII-XX asr boshlarida Xorazmda kandakorlik taraqqiy etgan. Muzeylarda, ayniqsa, XDMQda saqlanayotgan buyumlar shundan dalolat beradi. Xorazmda *qum‘on, selobcha, tuncha, tung, xo‘n* kabi uy-ro‘zg‘or buyumlaridan keng foydalanilgan. Ular orasida, ayniqsa, Xiva qum‘oni o‘ziga xos original shaklga ega. O‘zbekiston muzeylaridagi Xorazm kandakorligi eksponatlarini tahlil qilish natijasida Xorazmda qizil va sariq misdan, bronza va kumushdan ko‘p foydalanilganligini aniqlandi. Xorazm kandakorligida buyumlar, asosan, o‘yma uslubida bezatilgan. Buyumlarni pardozlashda esa chizma uslubi ham qo‘llangan. Xorazm kandakorligida shabaka usuli juda kam ishlatilgan. Xorazm kandakorligida naqshlar ustidan bo‘yoq yoki turli qoplamalar bilan ishlov berilmagan. Bu sohada Muhammadpano, Xudoybergan Matchonov, Matyoqub Jonibekov, Hojiniyoz Saidniyozov shuhrat qozongan. Kandakor ustalar buyumlarni bezatishda, asosan, islmiy naqshlardan foydalanishgan. O‘sha paytda buyumlarni bezatishda “*aylanma islmiy*” ommaviy naqsh hisoblangan.

Xorazmlik kandakorlar buyumlarni *islimiy*, “*murakkab islimiy*”, “*madohil*”, “*aylanma islimiy*”, “*bitav*”, “*qo‘chqor shoxi*”, “*turunj*” kabi naqshlar bilan bezaganlar. Girih naqshlardan “*chetan*” yoki “*katak*”ni ko‘proq qo‘llashgan. Bir-biriga chirmashib ketuvchi “*hoshiya islimiy*”, “*bitav islimiy*”, “*turunj islimiy*” naqsh turi boylik va farovonlik ramzini ifodalagan.

13. XVIII–XIX asr 70-yillarigacha tilla va kumushdan taqinchoqlar yasash keng tarqalgan bo‘lsa, XIX asr oxiri – XX asr boshida tilla va kumushdan buyum ishlab chiqarish keskin kamaygan. Buning o‘rniga buyumlarni kumushdan yasab, sirtiga zarhal berish paydo bo‘lgan. Bu paytgga kelib jez, mis, kumush va turli rangli shisha asosiy materialga aylangan. Xorazm zargarlik buyumlari turlarining ko‘pligi, hashamdor bezalishi, ishlanish texnologiyasi bo‘yicha boshqa hududlardan ajralib turadi. Xorazmda XX asr boshigacha tojduzi, duoduzi, manglayduzi, manotduzi, osmaduzi, kalitbog‘i, yarimtirnoq, butuntirnoq, bodomoy kabi taqinchoqlar keng tarqalgan. Har bir buyum, undagi shakl, bezak ramziy ma‘noni ifodalagan. Masalan, kalitbog‘ida kalitlar farovonlik va boylik timsoli sanalgan.
14. Xorazm yog‘och o‘ymakorligida vohaning o‘ziga xos xususiyatlari yaqqol aks etgan. Ishlatiladigan material (gujum, qoramon, olmurut), buyum turlari (o‘ra, o‘ratosh, qopi, lavh, egar, xomut), bezalishi (islimiy: “*madohil*”, “*turunj*”, “*oygul*”; girih: “*tirnoq*”, “*uch burchak*”, “*to‘rt burchak*”, “*sakkiz qirrali yulduz*”), texnikasi (yog‘ surtish, zaminning kamligi) bilan alohida ajralib turadi. Mashhur ustalar: Masharif naqqosh, Matkarim naqqosh, Momit, Bolta va Xo‘ja o‘rachilar, Abdurahmon usta, Ota Polvonov, Safo Bog‘ibekov yog‘och o‘ymakorligining ajoyib namunalarini ijod qilib, o‘nlab shogirdlar tarbiyalagan. Yog‘och o‘ymakorligi Xorazm amaliy san‘atida barcha davrda ravnaq topgan. Me‘moriy yodgorliklardagi yog‘ochdan ishlangan qismlar va muzeylardagi maishiy buyumlar Xorazm yog‘och o‘ymakorligi tadqiqotimiz ob‘ekti qilib olingan davrda rivojlanganligini ko‘rsatadi.
15. 1920–1940-yillarda xalq hunarmandchiligi qisman rivojlandi. Hududlarda artellar tashkil etildi. Xususan, Xivada “*Umid*”, “*Uchqun*” artellari faoliyat yuritdi. Artellarda ustalar kandakorlik, gilamdo‘zlik, mato tayyorlash, chitgarlik turlari bilan shug‘ullandilar. Madir, Kattabog‘ kulolchilik markazlari faoliyat yuritdim. 1950–1990-yillarda hunarmandchilik butunittifoq doirasida butunlay sanoatlashtirildi. Ko‘pgina turlar butunlay unutildi, ayrim sohalar fabrika, kombinatlar ko‘rinishida faoliyat yuritdi. Jumladan, Xiva keramika zavodi, Xiva gilam kombinati qoshida qo‘l mehnatiga asoslangan, ammo Bosh rassom tomonidan berilgan namuna asosida bir xil mahsulotlar tayyorlandi.
16. O‘zbekiston Respublikasi davlat Mustaqilligini qo‘lga kiritgach, boshqa sohalar kabi an‘anaviy amaliy san‘atga alohida e‘tibor qaratildi. Unutilgan amaliy san‘at turlari va buyumlari qayta tiklandi. Sohani rivojlantirishning huquqiy asoslari ishlab chiqildi. Hunarmandlarga soliq va boshqa imtiyozlar berildi. Ayniqsa, 2017-yildan keyin soha yanada rivojlantirildi. Aholini ish bilan ta‘minlash, sayyohlikni rivojlantirish orqali daromadni oshirish maqsadida hunarmandchilik, jumladan badiiy hunarmandchilik uchun keng imkoniyatlar yaratildi. Xalqaro festivallarni tashkil etilishi, hunarmandchilik markazlarining

bunyod etilishi sohani yanada taraqqiy qildirdi. Hozirgi kunda Xorazmda yog‘och o‘ymakorligi, kulolchilik, gilamdo‘zlik sohalari rivojlanmoqda. Pichoqchilik, chitgarlik, milliy chopon va etiklar tayyorlash qayta tiklandi.

Asosiy **taklif va tavsiyalar** quyidagilar:

- hozirda yo‘qolib ketgan amaliy san‘at turlari va buyumlarini, jumladan zargarlik, marmar o‘ymakorligini, milliy taxyalarlarni qayta tiklash;
- kulolchilikda tabiiy ishqor tayyorlashni yo‘lga qo‘yish;
- tadqiqot davri bo‘yicha badiiy hunarmandchilik markazlari atlasini yaratish;
- an‘anaviy amaliy san‘at turlarini o‘rgatish uchun to‘garaklar va markazlar tashkil etish;
- “Ichan qal‘a” davlat muzey qo‘riqxonasi Amaliy san‘at va hunarmandchilik ekspozitsiyalarini elektron shaklini yaratish muhim ahamiyat kasb etadi.

**ОДНОКРАТНЫЙ НАУЧНЫЙ СОВЕТ PhD38/09.07.2020.San. 119.01 ПО
ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ НАЦИОНАЛЬНОМ
ИНСТИТУТЕ ИСКУССТВ И ДИЗАЙНА ИМЕНИ КАМАЛИДДИНА
БЕХЗОДА**

ИНСТИТУТ ИСКУССТВОВЕДЕНИЯ

АБДУЛЛАЕВ МАШАРИБ САЙДАМАТОВИЧ

**ДЕКОРАТИВНО-ПРИКЛАДНОЕ ИСКУССТВО ХОРЕЗМА IX- НАЧ.
XXI ВВ: ОСНОВНЫЕ ЭТАПЫ РАЗВИТИЯ И
ХУДОЖЕСТВЕННЫЕ ОСОБЕННОСТИ**

17.00.04 – Изобразительное и декоративно-прикладное искусство

АВТОРЕФЕРАТ

Диссертации на соискание степени доктора искусствоведения (DSc)

Ташкент – 2025

Тема диссертации доктора наук (DSc) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан под номером B2025.DSc/San28.

Диссертация выполнена в Институте искусствознания Академии наук Республики Узбекистан. Автореферат диссертации размещен на трех языках (узбекском, русском и английском (резюме)) на сайте Ученого совета (www.mrdi.uz) и Информационно-образовательном портале «Ziyonet» (www.ziyonet.uz).

Научный руководитель:

Хакимов Акбар Абдуллаевич
доктор искусствоведения, профессор,
академик АН РУз, академик АХУз

Официальные оппоненты:

Давлатова Саодат Тиловбердиевна,
доктор исторических наук, профессор

Мкрчив Тигран Константинович
доктор искусствоведения, профессор

Султонова Дилшода Намозовна
доктор архитектурных наук, профессор

Ведущая организация:

Государственный институт искусств и культуры Узбекистана

Защита диссертации состоится на однократном заседании Научного совета № PhD.38/09.072020.San.119.01 Национального института художеств и дизайна имени К. Бехзода «___» _____ 2025 года в ___ часов. (Адрес: 1000 29 , г. Ташкент, ул. Мироншаха, дом 123. Тел.: (71) 255-98-39; e-mail: [info @ mrddi .uz](mailto:info@mrddi.uz)).

С диссертацией можно ознакомиться в библиотеке Национального института искусств и дизайна им. К. Бехзода. (зарегистрирован под номером ___). Адрес: 100029, г. Ташкент, ул. Мироншаха, дом 123. Тел.: (71) 255-98-39 . e -mail: [info @ mrddi . uz](mailto:info@mrddi.uz)

Автореферат диссертация были разосланы _____ 2025 года .
Протокол № ___ от « ___ » _____ 2025 г.).

К.Б. Акилова
Председатель Научного совета по присуждению ученых степеней,
Доктор искусствоведения, профессор

К.С. Нишанова
Секретарь Научного совета по присуждению ученых степеней
доктор философии (PhD) по искусствоведению,
доцент

А.А. Зиёев
Председатель Научного семинара при Научном совете по присуждению ученых степеней
доктор архитектурных наук, профессор

ВВЕДЕНИЕ (реферат докторской диссертации)

Актуальность и востребованность темы диссертации. Одним из приоритетных направлений в мировом декоративно-прикладном искусстве является сохранение, художественное обогащение и широкая пропаганда художественных промыслов регионов и областей, их вековых традиций, этапов исторического становления, художественных особенностей и специфики, традиций народного прикладного искусства. Наблюдается снижение художественного качества изделий из-за забвения традиций ремесла, резких изменений в практическом искусстве, упрощения узоров и декора, однообразия за счет использования современного оборудования, адаптации к рыночным условиям и производства подарочной продукции. В настоящее время в глобальном масштабе происходят крупные политические и экономические изменения, влияющие на социальную и культурную жизнь всех стран, а сохранение и развитие национальных культур становится актуальной проблемой.

В науке мирового искусствознания, исследующей влияние изменений, происходящих в современных условиях глобализации, на материальное и нематериальное культурное наследие, исламское искусство, особенно декоративно-прикладное, приобретает все большее значение. Социальное значение, виды и художественное оформление декоративно-прикладного искусства широко изучаются во многих научно-исследовательских институтах, университетах и музеях мира. Необходимо выявить этапы развития декоративно-прикладного искусства на основе междисциплинарных исследований, национального, регионального и территориального сопоставления, оценки общего и взаимовлияния, исследования семантики, структуры и применения каждого узора.

В годы независимости изучение уникального и малоизученного узбекского декоративно-прикладного искусства, являющегося неотъемлемой частью национального культурного наследия, служит сохранению национальной самобытности и дальнейшему повышению духовного уровня общества. В последние годы в целях сохранения, возрождения и дальнейшего развития художественных ремесел были организованы «Международное биеннале изобразительного и прикладного искусства», международный фестиваль «Атлас байрами», «Международный фестиваль ремесел», международный фестиваль «Ювелирное и золотошвейное дело», «Международный гончарный форум». В целях материального поощрения и общественного признания народных мастеров в условиях рыночной экономики объединение «Хунарманд» проводит большую работу. «Необходимо глубоко изучать наш язык и литературу, историю, культуру и искусство, которые являются нашим бесценным богатством. Один из столпов нашего развития — экономика, а другой — духовность и просвещение. Поэтому наша история, национальные ценности и культурное наследие являются той силой, которая знакомит нас с миром и воспитывает молодежь,

и мы поддерживаем исследования в этой области»²⁸. Сегодня это служит основой для восстановления и обогащения утраченных видов и технологических стилей художественных промыслов, украшений, местных особенностей.

Данная диссертационная работа направлена и в определенной степени служит обеспечению реализации важных задач, обозначенных в Указах Президента Республики Узбекистан от 17 ноября 2017 года № ПФ-5242 «О мерах по дальнейшему развитию ремесел и всесторонней поддержке ремесленников», от 12 июня 2023 года № ПФ-91 «О мерах по привлечению населения к ремесленничеству и созданию благоприятных условий для развития ремесленнической деятельности», от 16 августа 2017 года № ПП-3219 «О дополнительных мерах по развитию и дальнейшему совершенствованию деятельности Академии художеств Узбекистана», от 17 ноября 2017 года № ПП-3393 «О дальнейшем совершенствовании деятельности Ассоциации «Хунарманд», от 28 ноября 2019 года № ПП-4539 «О дополнительных мерах по дальнейшему развитию ремесленничества и поддержке ремесленников» и других нормативно-правовых актах.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и техники республики. Диссертационная работа выполнена в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий республики I. «Формирование системы инновационных идей и путей их реализации в социальном, правовом, экономическом, культурном, духовном и образовательном развитии информационного общества и демократического государства».

Обзор зарубежных исследований по теме диссертации ²⁹. Отдельные вопросы, связанные с художественным наследием Узбекистана, изучаются в ряде зарубежных научных центрах и высших учебных заведениях, музеях, в том числе в Музее Линдена в Штутгарте, Берлинском музее этнологии (Германия), Метрополитен-музее (США), Санкт-Петербургском государственном Эрмитаже, в Государственном музее Востока, в Музее этнографии (Россия), в Люблинском технологическом университете (Польша), в Босфорском университете (Турция), в Лейденском университете (Нидерланды), а также в Канаде, Франции, Италии, России, Японии, Турции, Англии, Чехии, Индии и в других странах.

Выявлены основные этапы и художественные особенности развития прикладного искусства Хорезма в IX — начале XXI вв.: ремесла Хивинского ханства, конское снаряжение, оружие, одежда, хорезмские ювелирные украшения, а также художественные аспекты, такие как форма, цвет и узор гончарных изделий (Музей Линден, Штутгарт, Германия); Хорезмские

²⁸ Мирзиёев Ш.М. Вместе мы построим свободную, процветающую и благополучную страну – Новый Узбекистан. Ташкент: Узбекистан, 2023. – С. 75.

²⁹ Обзор зарубежных научных исследований по теме диссертации <https://chrome.&sourceid;https://www.iaaw.hu-berlin.de> ; <https://smapse.ru/bosphorus-university/> ; https://www.unipage.net/ru/_208/лейденский_университет ; <https://bc.pollub.pl/> ; <https://Metropolitan-museum> ; <https://legacy.uz/uz/zhild-8/> ; <https://www.cambridge-centralasia.org;> <https://dzen.ru/media/id;> Подготовлено на основе <https://www.amazon.com/> , <https://society.uz/uz/culture/> и других источников.

украшения делятся на типы (мужские, женские, детские), в зависимости от конструкции (простые, сложные), техники исполнения (*босма, кадама, халлаш*) и художественных особенностей (форма, цвет, декор) (Берлинский музей этнологии, Германия); зафиксировано широкое использование в искусстве резьбы растительных, геометрических и каллиграфических орнаментов (Метрополитен-музей, США); определены особенности изготовления и декорирования таких изделий, как *бодиа, чанак*, форма для *чугырмы, кумгон, тунг, тунча, осмадузи, манглайдузи, яримтирнок, бутунтирнок* (Государственный музей Востока, Российская Федерация); Установлено, что хорезмийские ювелирные изделия, резьба по дереву и керамика из коллекции Этнографического музея датируются XVIII-XIX веками и отличаются тонкой и искусной работой (Этнографический музей, Российская Федерация); В рамках проекта «3D DIGITAL SILK ROAD» совместно с учеными Ургенчского университета была проведена оцифровка исторических памятников города Хивы, а также установлена суть декоративных украшений на архитектурных памятниках (Люблинский технологический университет, Польша).

